

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI  
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA INSTITUTI**

**Qo‘shnazarov O‘ral Muxammadi o‘g‘li**

**“Gandbolchilarni tayyorlash jarayonida murabbiyning psixologik  
omillarini rivojlantirishni tadbiq etish”**

**Ta’lim yo‘nalishi: 5610508 "Sport faoliyati" gandbol**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Ish ko‘rib chiqildi va himoyaga qo‘yildi  
“Gandbol va tennis nazariyasi va uslubiyati”  
kafedrası mudiri: p.f.n \_\_\_\_\_O.X.Abdalimov  
“\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2016y.

Ilmiy rahbar:  
\_\_\_\_\_ Akramov J.A

Toshkent 2016

## Mundarija

Kirish.....	3
<b>I-BOB GANDBOLCHI MURABIYLARDA KASBIY MUHIM SIFATLARNI SHAKLLANISHI, PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA.....</b>	<b>7</b>
1.1 Xorij olimlarning tadqiqotlaridagi murabiyning shaxsi va uning psixologik xususiyatlari.....	7
1.2. Gandbol murabbiyining kasbiy muhim sifatlari xorij psixologlarning o‘rganish ob’ekti sifatida.....	17
1.3. O‘zbekiston psixologlari tadqiqotlarida o‘qituvchi kasbi masalasi.....	28
<b>II-Bob. TADQIQOTNING MAQSADI, VAZIFASI, USULLARI VA TASHKIL QILINISHI.....</b>	<b>37</b>
2.1 Tadqiqotning maqsadi va tashkil etilishi.....	37
2.1 Tadqiqotni tashkil qilinishi.....	39
2.3 “O‘qituvchi shaxsida kasbiy sifatlarni rivojlantirish bo‘yicha amaliy psixologik mashg‘ulotlar dasturi”.....	42
<b>III-BOB. GANDBOLCHILARDA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIK VA IRODAVIY SIFATLARNING HARAKTARLI HUSUSIYATLARINI O‘RGANISH.....</b>	<b>46</b>
3.1 Tadqiqot natijalari.....	46
3.2 Tadqiqot natijalarini taqoslash.....	49
<b>Xulosa.....</b>	<b>50</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.....</b>	<b>52</b>

## Kirish

Ta'limdagi yangilanish ta'lim jarayoni orqali o'quvchini o'z kelajagini yorqin tasavvur qila oladigan, bu borada o'z taqdiri va o'z shaxsiga ongli munosabatda bo'lib, turli faoliyatlarda o'zini-o'zi rivojlantira oladigan erkin faol va mustaqil shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi. Mustaqillik tufayli o'z taraqqiyot yo'lidan borayotgan O'zbekistonda yangicha fikrlaydigan bo'layotgan voqea-hodisalarga erkin munosabat bildiradigan ijodiy va tanqidiy mushohada yuritadigan muloqotning sir asrorlarini o'rgangan yoshlarni tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar yaratib kelinmoqda.

Yosh avlodni yuksak ma'naviyatli qilib shakllantirish, mustaqil mamlakatimizning ishonchli va intellektual salohiyatli fuqarolari etib tarbiyalash uzluksiz ta'lim tizimining dolzarb vazifasi bo'lib hisoblanadi. Prezidentimiz I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Konsititutsiyasining 17 yilligiga bag'ishlangan ma'ruzasida ta'kidlaganidek: "Jamiyat bugun unib-o'sib kelayotgan farzandlarining har tomonlama barkamol avlod bo'lib hayotga kirib borishini o'zi uchun eng ulug', kerak bo'lsa, eng muqaddas maqsad, deb biladi".

Darhaqiqat barkamol avlodni tarbiyalash masalasi uchun jamiyatning barcha insitutlari mas'uldir. Ayniqsa, barkamol avlodni shakllantirishning amaliyotini ta'minlashda, bu boradagi ilmiy muammolarning echimini topish, olg'a surilgan nazariy xulosa va tavsiyalarni ta'lim-tarbiya amaliyotiga tatbiq etish jamiyatimizning ota-onalar, tarbiyachi-o'qituvchilari, uzluksiz ta'lim tizimi oldiga qo'yadigan davlat buyurtmasini samarali bajarilishi garovidir.

Endilikda oliy ta'lim muassasalari oldiga faqatgina o'qimishli insonnigina emas, balki voqealarni oldindan ko'ra biladigan, to'g'ri qaror qabul qila olish uquviga ega, o'zini o'zi rivojlantirish zaruriyatini tushunib etadigan oqil va barkamol shaxsni shakllantirish vazifasi qo'yilmoqda. Dar haqiqat, o'qimishli, ruhan tetik, sog'lom va jismonan baquvvat kishilargina istiqlol va taraqqiyot yo'lini bosib o'ta oladi. Yuqoridagi mulohazalarga asoslanib shuni aytish

mumkinki, respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning yaratuvchisi tarzida shakllanayotgan yosh avlodni voyaga etkazish, ularning zamon talablari darajasida bilim olishi, shaxs sifatida kamol topishi, kasb-hunar sirlarini o'rganishi va kundalik turmush yumushlarini hal etishga tayyorgarlik masalasi asosiy muammolar tariqasida ta'lim jarayonining kun tartibida turibdi.

Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarining amaliyotida shu narsa sezilmoqdaki, bo'lajak pedagog mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik mazmuni, shakllangan shaxs modeli va ixtisoslik faoliyatini ta'riflash me'yorlarini ishlab chiqish, faoliyat sub'ektining kasbiy tasavvuri va tafakkurini hamda o'zini o'qituvchi sifatida anglab etishini tadqiq qilish masalalariga ilmiy jamoatchilikning e'tibori yanada ortmoqda. Murabiyida kasbiy muhim sifatlarni shakllanishi o'ziga xosligini o'rganish muammoga nisbatan yonashishni talab qiladi.

Oliy ta'limda mutaxassisni tayyorlash muammosi G.V.Akopov (oliy ta'limda ijtimoiy psixologiya bo'yicha), A.A.Verbitskiy (oliy ta'limda o'qitishning faol metod va shakllari), B.A.Vyatkin, E.A.Klimov, B.C.Merlin, M.R.Shukin (faoliyatning individual uslubi, muloqot va faollik), A.N.Leontev (ta'limda motivatsiyaning o'rni), V.D.Shadrikov (kasbiy faoliyatning sistemogenezi va kasbiy qobiliyatlar) va boshqalar.

Kasbiy ongning shakllanishi va rivojlanishining psixologik qonuniyatlari (G.V.Akopov, Y.M.Zabrodin, I.A.Zimnyaya, N.D.Levitov, A.K.Markova, K.K.Platonov, E.I.Rogov, E.S.Romanova, L.D.Stolyarenko, M.K.Tutushkina, P.D.Uspenskiy, V.D.SHadrikov va boshqalar); kasbiy rivojlanish va kasbiy ta'lim tizimini takomillashtirish haqida (A.A.Bodalev, E.A.Klimov, V.V.Petuxov, A.I.Smirnov, G.A.Uruntaeva, V.D.Shadrikov va boshqalar); kasbiy yuksalishning psixologik kriteriyalari haqida (E.A.Klimov, A.K.Markova, L.M.Mitina, V.D.Shadrikov va boshqalar); ijtimoiy-psixologik ta'limda shaxsning ijodiy faolligi haqida (L.P.Bueva, I.V.Vachkov, Y.N.Emelyanov, G.I.Marasanov, L.A.Petrovskaya, N.V.Samoukina va boshqalar); ta'limni insonparvarlik paradigmalari haqida (V.P.Bezduxov, Y.N.Kulyutkin, V.M.Miniyarov,

G.S.Suxobskaya va boshqalar); ta'limda shaxsli-faoliyatli yo'nalishi haqida (A.K.Markova, V.V.Serikov, I.S. Yakimanskaya va boshqalar); kasbiy kasbiy tafakkur haqida (V.P.Andronov, S.N.Arhangelskiy, S.G.Gellershteyn, G.O.Glyazer, L.D.Zavalishina, IL.Koloshina, Y.K. Kornilov, A.I. Podolskiy va boshqalar); refleksiv mexanizmlarni psixologik mexanizmlari haqida (V.N.Azarov, G.M.Andreeva, V.V.Barsalkina, L.F.Bersfai, A.A.Bodalev, E.V.Bodrova, V.YA.Buturin, A.V.Karpov, V.V.Ponomareva, V.G.Romanenko, E.G.Yudina va boshqalar); ijtimoiy-psixologik trening texnikasi va texnologiyalarining konsepsiyasi, metodologiyasi haqida (Y.M.Jukov, V.P.Zaxarov, K.Levin, S.I.Makshanov, Y.Moreno, F.Perlz, L.A.Petrovskaya, A.S.Prutchenkov, K.Rodjers, K.Rudestam, D.Uotson, N.Y.Xryaщeva va boshqalar); psixoterapiyada videotexnikani amaliy qo'llash haqida (B.D.Karvasarskiy, L.M.Kulgavin, S.A.Podsadniy, V.P.Samoxvalov, D.V.Trubitsina va boshqalar). SHuningdek, vatanimiz psixolog olimlaridan M.G.Davletshin, E.G'.G'oziev, V.M.Karimova, G'.B.Shoumarov, B.R.Qodirov, R.Z.Gaynutdinov, A.M.Jabborov, V.A.Tokareva, Sh.R.Barotov, Z.T.Nishonova, R.I.Sunnatova, N.S.Safoev, G.Berdiev, B.T.Gappirov, S.X.Jalilova, M.Qoplonova, M.M.Mavlanov, N.M.Majidov, A.M.Mashkurov, N.X.Muratalieva, X.A.Ruxieva, Sh.A.Eshmetov, K.B.Qodirov, E.A.Xidirov va boshqalarning olib borayotgan ilmiy izlanishlari diqqatga sazovordir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlaridagi ta'lim va tarbiyaga oid g'oyalar, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"; o'zbek psixologiyasi maktabi vakillarining o'qituvchi kasbiy tayyorgarligi, uning shaxsi va faoliyati psixologiyasi, o'quv-tarbiya jarayonlarining o'ziga xos psixologik xususiyatlariga bag'ishlangan izlanishlari nazariy-metodologik asos qilib olindi.

Shuningdek, psixologiya fanidagi faoliyat yo'nalganligi va shaxs borasidagi insonparvarlik nazariyalari (L.S.Vigotskiy, S.A.Rubinshteyn, A.N.Leontev, B.M.Teplov, B.G.Ananov, K.A.Abulxanova-Slavskaya,

G.V.Suxodolskiy, V.D.SHadrikov va boshqalar), faoliyatning sistemogenez nazariyasi (V.D.SHadrikov); shaxs rivojlanishining holati va nazariyasi, konsepsiyasi (L.S.Vigotskiy, I.V.Dubrovina, V.A.Krutetskiy, A.K.Markova, D.B.Elkonin); shaxsiy-kasbiy shakllanish konsepsiyasi (T.I.Danyushevskaya, E.A.Klimov, Y.P.Povaryonkov, G.V.Rezapkina, N.V.Samoukina, E.A.Faraponova, V.V.CHebisheva, L.M.Mitina) sharq mutafakkirlarining ta'limotlari, boshqaruv va prognostik ehtimollilik tamoyillariga amal qilindi.

## **I-BOB GANDBOLCHI MURABIYLARDA KASBIY MUHIM SIFATLARNI SHAKLLANISHI, PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA**

### **1.1. Xorij olimlarning tadqiqotlaridagi murabiyning shaxsi va uning psixologik xususiyatlari.**

Jumladan, Abu Nasr Forobiy (873-950) o‘z davrida ijtimoiy-siyosiy masalalar bo‘yicha birinchilardan bo‘lib yirik asarlar yaratgan mutafakkirdir. Uning “Fozil odamlar shahri”, “Ideal jamoa haqida”, “Baxt-saodatga erishuv to‘g‘risida” kabi mashhur asarlarida ijtimoiy hayotning turli masalalari, ayniqsa, jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari, inson kamoloti bosqichlari, uni yashash jarayonida baxt-saodatga erishuv yo‘llari, o‘quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning didaktik va psixologik asoslari, inson shaxsini kamol toptirish yo‘l-yo‘riqlari, ilm- ma‘rifatga erishuvning usullari haqidagi fikrlari ijtimoiy muammolarni echish masalalari bilan uyg‘unlashganligini ko‘ramiz.

Forobiyning ta’kidlashicha, baxt-saodatga eltuvchi etuk jamoa rahbari (jumladan. o‘qituvchi) komil inson uchun zarur bo‘lgan barcha fazilatlarni hamda etuk rahbar uchun shart bo‘lgan xislatlarni egallagan bo‘lishi kerak. Aks holda, ko‘zlangan maqsadga erishishda turli to‘siqlar vujudga keladi. Forobiy oqil insonlar haqida gapirib, aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o‘tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, yomon ishlardan o‘zlarini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar, degan edi. Alloma oqillar bor joyda hech qachon muammolar va kelishmovchiliklar bo‘lmasligiga ishora qiladi.

Uning fikricha, ustoz shogirdiga zug‘um qilishga, shuningdek, ko‘p hollarda yon berishga intilmasligi darkor. Chunki ortiqcha zug‘um shogirda ustozga nisbatan nafrat uyg‘otadi. Agarda shogird ustozning ko‘ngli yumshoqligini payqab qolsa, bu hol ustozni mensimaslikka, oxir-oqibatda u beradigan bilimdan sovib ketishga olib keladi. Forobiy muallimning kasbiy tayyorgarligi haqida to‘xtalib, ta’lim faqat so‘z va o‘rganish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa, amaliy ish, tajriba bilan, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat ish-

harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lishlikni o'rganishdir. Agar ular shu kasb-hunarga berilgan bo'lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig'i bo'ladi, degan xulosaga keladi.

Forobiyning o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, ustoz faoliyati hamda shaxsiga qo'yiladigan talablar, o'qituvchi kasbiy tayyorgarligiga bo'lgan e'tibor, shuningdek, insonlar jamoasidagi o'zaro hamjihatlik, yordam, inson kamoloti va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni to'g'risidagi g'oyalari hozirgi o'quv-tarbiya jarayonlarini takomillashtirishda, bo'lg'usi o'qituvchilarning kasbiy va shaxsiy fazilatlarining shakllanishida g'oyat muhim ahamiyatga egadir.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) o'zining pedagogik-psixologik qarashlarida didaktikaga doir dolzarb masalalarni o'rtaga tashlaydi. Uning pedagogik ijodida inson va uning baxt-saodati, ta'lim-tarbiyasi, kamoloti bosh masala bo'lgan. SHunga ko'ra tabiat, jamiyat hodisalariga, turmush voqealariga xolisona baho berish inson tabiatini anglatuvchi omil ekanligini ta'kidlab, kishilarni voqealarga mustaqil va ongli munosabatda bo'lishga undaydi.

Har bir inson o'z qalbining farmoyishiga ko'ra ezgulikka intilishi, shuhrat qozonish uchun muruvvat ko'rsatmasligi kerakligini ta'kidlaydi. U har bir narsani aniq, sinchiklab o'rganish, bilish va, shundan so'nggina, bir xulosaga kelish kerakligi va, bu o'rinda, ayniqsa, tajribaga asoslanishni alohida uqtiradi, nodonlik, qalloblik erinchoqlik, ilmsizlik va sun'iy e'tiqodni tanqid qiladi. Shu bois, Beruniy o'z davrida keng tarqalgan o'qitishning sxolastik metodlariga qarshi chiqib, o'quvchini hamma narsaga o'rgata olish mumkinligini, o'qitish va tarbiyalashda turmush va tabiat ko'rsatmalariga asoslanishni, bolaning shaxsiy va individual xususiyatlarini doimo nazardan chetda qoldirmaslikni uqtiradi.

Beruniy ta'lim jarayonining mohiyatini chuqur tahlil qilib, o'qituvchining kasbiy va shaxsiy tayyorgarligiga qator didaktik va psixologik talablar qo'yadi, hamda pedagogik faoliyatida quyidagilarga amal qilishni tavsiya etadi:



- sezgi organlarining ma'lumotlariga ko'ra ... bilishni davom ettirish;
- fanni o'rganayotganda fikrlash, xotirlab esga olish zarur;
- o'rganilayotgan ilmlarni to'la bilib olish uchun, o'sha ilmni tashkil etib turgan elementlarni puxta o'rganib chiqish;
- bilimda oddiydan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga, yaqindan-uzoqqa, osondan-qiyinga, dalillardan-xulosalarga qarab borish;
- uzoq o'tmishga oid bilimlarni o'rganganda shu ilm, fan tarixini o'rganish;
- hodisalarni, fan asoslarini bir-birlariga taqqoslab, solishtirib, har tomonlama chog'ishtirib o'rganish.

Beruniy o'qitish jarayonida bolalarga tushunarli bo'lmagan so'zlarni quruq yodlashga asoslangan ta'limni qattiq qoralab, "Tushunish yodlashdan yaxshiroq va afzaldir. Ma'lumki, har bir murakkab narsaning sodda bo'laklari bor, murakkablik shular yig'indisidan kelib chiqadi. Sezgilar beshta bo'lib, ular quloq bilan eshitish, ko'z bilan ko'rish, burun bilan hidlash, til bilan tatish va teri bilan tegib bilishdan iboratdir, ... ilm va ma'rifat faqatgina o'shalar orqali hosil bo'ladi" kabi amaliy asoslangan xulosalarga tayanadi. Beruniyning bu kabi hayotiy xulosalari bugungi kunda ham o'z qimmatini pasaytirgan emas, albatta.

Ibn Sino ( 980-1037) "Tib qonunlari" asarida o'quv-tarbiya jarayoni yagona jarayon ekanligini ta'kidlab, bolani olti yoshdan boshlab muallimga topshirish xususida fikr yuritadi. Ta'limda o'qitish oddiylikdan murakkablikka qarab borish qoidasiga amal qilishi, shuningdek, bolaga kuchi etadigan (yoshiga ko'ra jismoniy va psixologik imkoniyatlariga mos) mashqlarni bajartirish amali bu jarayonda katta ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Muallif o'qituvchi va tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi va shaxsiy fazilatleri haqida to'xtalib, ular axloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi egallagan, irodali, dono, g'amxo'r va iymon-e'tiqodli, sog'lom, tozalikni sevuvchi, sofdil va odamlarga yaxshi munosabatda bo'la oladigan inson bo'lishi zarurligini e'tirof etadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, Ibn Sinoning hayotiy kuzatishlari va g‘oyalari nafaqat o‘z davrida, balki hozirgi kunda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yusuf Xos Hojibning shox asari “Qutadg‘u bilik” (“Saodatga yo‘llovchi bilim”) turkiy xalqlarning qadimgi ta‘lim va tarbiya usullari, ma‘naviy kamolot, axloq va odobga doir noyob ma‘lumotlarni saqlagan muhim manbadir. Mazkur asarni o‘rganish orqali XI asrdagi ijtimoiy-madaniy hayot, yoshlar tarbiyasiga bo‘lgan e‘tibor, maktablardagi fan tarmoqlari, o‘qituvchining kasbiy faoliyati va shaxsiy kamoloti, o‘qitish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari haqida ko‘plab qimmatli ma‘lumotlarga ega bo‘lamiz. Uning fikricha, insonning ulug‘ligi aql-idroki, so‘zlash qobiliyati, bilimi, odobi va uquv-hunarga egaligidir. Bu xislatlar uning muhtamligini ham ta‘minlaydi. Yusuf Xos Hojibning uqtirishicha, o‘qituvchi o‘z bilimi, til odobi, yurish-turishi, rostgo‘yligi, pokligi, kamtarligi, sevgi va vafosi, mehr-muruvvati, sabr-toqati kabi fazilatlar bilan yoshlarni har bir ishda aql-idrokli, o‘zgalarga g‘amxo‘r va mehribon, har bir ishni o‘z o‘rni va o‘z vaqtida ado etadigan qilib tarbiyalashlari lozim.

Az-Zamaxshariyning ijodiy faoliyatiga nazar tashlasak, ilmiy asarlarni yozish va ko‘plab shogirdlar etishtirishni hamma narsadan afzal ko‘radi. Bu voqelikni “Nozik iboralar” asarida bayon qilingan hikmat, nasihat va o‘gitlaridan ham ko‘rish mumkin. Ushbu asarda yoshlarni ota-onaga hurmat, ilmga muhabbat, vafo, haqgo‘ylik, halol-pokizalik, hamdardlik, himmatlilik, xushfe‘llik, olijanoblik, mardlik, ezgu-niyat kabi yaxshi xislatli bo‘lishga, yomon illatlar va ulardan saqlanishga da‘vat etadi. Ulug‘ mutafakkir ilmni va ilm ahlini yuksak baholaydi. Ilmli bo‘lish, o‘qitish va yozish bilan hosilu mukammal bo‘ladi.

Olim kishi (o‘qituvchi) chiroyli, xushxat yozuvga ega bo‘lsa, bu uning kamolotga etishganligidan dalolatdir. “Eru zaminning ko‘rkamligi olimlar bilan bo‘lsa, osmonu falakning ziynati esa yulduzlar bilandur”, deydi shoir. Az-Zamaxshariyning bu pand-nasihatlar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, o‘qituvchilarning kasbiy kamoloti va pedagogik fikr rivojida munosib o‘rin egallagan va hozir ham o‘qitish jarayoni uchun muhim ahamiyatga ega.

Burxoniddin Zarnudjiy XII asrda yashab ijod etgan va o‘zining ta’lim va tarbiya sohasidagi tajribasini umumlashtirib, “Ilm yo‘lidagi shogirdlarga nasihat” nomli asarini yaratgan. Asarda muallimlik kasbi va o‘qituvchilik odobiga doir bir qator axloqiy talablar o‘z ifodasini topgan. Ular quyidagi bo‘limlardan iborat: “Bilish ilmining mohiyati va uning mukammalligi”.

“O‘qish jarayonidagi ongli ishtiyoq”. “ Fanni, o‘qituvchini, o‘rtoq va vaziyatni tanlash to‘g‘risida”. “Intilish, g‘ayrat va g‘amxo‘rlik to‘g‘risida”. “Fan va olimlarni e‘zozlash to‘g‘risida”. “Darsning boshlanishi, kattaligi va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”. “Orzu-umid to‘g‘risida”. “Mashg‘ulotlar vaqti to‘g‘risida”. “Ixtlos va yo‘l-yo‘riq to‘g‘risida”. “Xotirani mustahkamlash va kuchsizlantiradigan narsalar to‘g‘risida”. “Umrni uzaytiradigan va qisqartiradigan narsalar to‘g‘risida”. Mazkur bo‘limlarning har birida o‘qituvchi bilishi va amaliy faoliyatida samarali qo‘llashi zarur bo‘lgan, uning kasbiy tayyorgarligi va shaxsiy fazilatlarining turli jihatlari haqida qimmatli ma’lumotlar uchraydi.

Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar”, Sa’diy SHeroziyning “Guliston va Bo‘ston”, Axmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq” nomli va boshqa ko‘plab buyuk ajdodlarimiz asarlarida ham o‘quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning yo‘llari, o‘qituvchining ma’lumoti, kasbiy tayyorgarligi, faoliyati va shaxsiga qo‘yiladigan asosiy talablar, o‘qituvchining ilm, fan va jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni to‘g‘risida qimmatli fikrlar o‘z ifodasini topgan. Ulardan namunalar keltiramiz: “Bolam tutsin desang donolik yo‘lin, kichiklikdan tegiz bilimga qo‘lin. Kichiklikdan bilim o‘rgat o‘g‘ilga, foydasi tegadi o‘shanda elga. Kimda – kim bilimga burdi o‘z yo‘lin, ezgudan o‘zgaga cho‘zmadi qo‘lin”. “Donolik yo‘li bilim olish, turli sohadagi ma’lumotlarni o‘rganishdir”.

“O‘qituvchining qadri bolalar va yaqinlarining unga bo‘lgan hurmat e‘tibori bilan belgilanadi, buning boisi shuki, o‘qituvchi ularga mehr ko‘rsatgan, ko‘ngil qo‘ygan”. “Bo‘limgaylar xayrixoh mudarris ila hakim, iltifot etmasang gar alarning har ikkisin. Qo‘rslik qilsang hakimga-tanangda dard qoladi. Mudarrisga

qo‘polsan, nodonligingcha qolasan”. “Murdadir gar tirik bo‘lsa ham nodon, o‘lgandan keyin ham yashar bilimdon”. “Beshikdan qabrgacha ilm izla”, “Umr o‘lchovli, ilm cheksizdir. SHuning uchun ilm tolibi vaqtni behuda, tunlarni bekor o‘tkazmasligi joiz”. “Ilm tolibi keksalar (ilmilar) ilmidan foydalanishi, ulardan o‘qib o‘rganmog‘i lozim. Zero, o‘tmishning ko‘plari unga ma‘lum emas”. “Bilimli kishi nimalarni so‘zlaydi, sen unga quloq sol, adablar boshi tildir, uni tiymoq zarur”. “Ey o‘g‘lim, mendan o‘git-nasihat ol, odobli va tarbiyali bo‘lishga tirish, toki el ichida zo‘r olim bo‘lib tanil va ular orasida odob va ilm tarqat ”.

Markaziy Osiyoda ijtimoiy-tarixiy davr madaniyati XV asrga kelib rivojlanishda yuqori darajaga etdi. Bu qadimiy va tabarruk hududdan jahonga mashhur olimlar, yozuvchilar, jamoat arboblari: Rumi, Ulug‘bek, Ali Qushchi, Lutfiy, Jomiy, Davoniy, Navoiy, Koshifiy va boshqalar etishib chiqqan. Samarqandda Ulug‘bek madrasasi tashkil topadi va tabiiy-matematik bilimlar markaziga aylanadi.

G.K.Mitrofanov o‘sha davr ta‘lim mafkurasi tasavvufning asosiy tayanchi bo‘lgan so‘fiylik haqida to‘xtalib, so‘fiylikning o‘qitish va tarbiyalash jarayonidagi insonparvarlik an‘analarini yoritgan. Bunday an‘analar o‘qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatlariga xos so‘fiylik ta‘limotida ifodalangan majburiyatlarida yaqqol ko‘rinadi. Ana shu majburiyatlarning eng asosiylari quyidagilardan iborat:

1. O‘qituvchi bolalarni yoqtirishi va ularga o‘zining farzandidek munosabatda bo‘lishi kerak. SHuningdek, ularning zaif jihatlarini doimo tushunishi va ularni shu zaifligi uchun yanada ko‘proq yoqtirishi lozim.

2. O‘qituvchi o‘zining ishi uchun haq ta‘ma qilmasligi, in‘om olmasligi yoki minnatdorchilik kutmasligi kerak. U o‘quvchidan uning o‘qishni xohlashi uchun minnatdor bo‘lishi zarur.

3. O‘qituvchi hech qachon o‘quvchiga maslahat berishdan bosh tortmasligi kerak. Olg‘a siljishni o‘quvchi emas, o‘qituvchi baholaydi.

4. O‘qituvchi o‘quvchini yomon yo‘ldan qaytarish uchun unga to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki nimalargadir ishora qilib gapirishi lozim.

5. Ma’lum fanni o‘rgatadigan o‘qituvchi o‘quvchilar oldida boshqa fanlar haqida nojo‘ya gap aytmashligi kerak.

6. O‘qituvchi nimani o‘rgatsa, o‘zi ham shunga amal qilishi shart. U birinchi galda o‘qishning samarasini ifodalaydigan jonli timsoldir va hokazo.

Ushbu majburiyatlar o‘qituvchi shaxsi va faoliyatining insonparvarlikka yo‘nalganligini, shu xalqning ta’limiy qadriyatlarini, uning madaniyati va turmushini, bosh qadriyat sifatida insonning yuksalishini ta’minlaydi.

Jaloliddin Davoniyning pedagogik qarashlarida o‘qituvchining kasbiy sifatlariga va shaxsiy fazilatlariga alohida e’tibor berilgan. U bolalarning xulq-odobiga salbiy ta’sir etuvchi, qo‘pol va badjahl muallimlarning xatti-harakatlarini keskin qoralaydi. Uning fikricha, muallim bilimli, aqlli, bola tarbiyasidan xabardor, yaxshi xislat va fazilatlarga ega bo‘lishi lozim. Mutafakkir o‘qituvchilik kasbining asl mohiyatiga to‘xtalib, shunday deydi: “Agar ota uning jismini tarbiyalashga sababchi bo‘lsa, muallim uning ma’naviy tarbiyasining kamolotga etishuviga sababchidir”.

Davoniyning fikricha, muallim bola qaysi kasbga qiziqsa, shu kasbni egallashida astoydil yordam berishi, uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashi lozimligini uqtiradi. U muallim uchun zarur bo‘lgan eng yaxshi insoniy fazilatlar- adolatlilik, sadoqatlilik, donolik, zukkolik, sabr-bardoshlilik, qanoatlilik, iffatlilik, xayolilik, mehr-shafqatlilik, matonatlilik, saxiylik singari axloqiy fazilatlargina o‘qituvchining xalq orasidagi obro‘cini oshiradi, ustoz-shogird munosabatlarini yuksak darajaga ko‘taradi va ta’limning samaradorligini ta’minlaydi, degan xulosaga keladi.

Alisher Navoiy yashagan paytda o‘qituvchiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish va qanday qilib bo‘lsa-da, uning obro‘cini oshirish va qadr-qiymatini

saqlash zarur, deb hisoblangan. O‘qituvchining mehnatiga haq to‘lashda ham unga g‘amxo‘rlik qilingan. O‘sha davrdayoq o‘qituvchining mehnati eng murakkab va qiyin faoliyatlarning biri, deb hisoblangan. Shuning uchun o‘qituvchining kasbiy sifatlariga ma‘lum talablar qo‘yilgan. Mudarris (o‘qituvchi) yuksak darajada bilimli, mantiqli, dono, kishilar bilan yaxshi muomala qila oladigan, vazmin, o‘zining xulqi bilan ibratli odam bo‘lishi kerak, deb hisoblangan. Bu o‘sha davrdagi o‘qituvchining o‘ziga xos ideali bo‘lgan.

Navoiy mudarrislarning jamiyatdagi yuksak mavqeini alohida e‘tirof etadi, ulug‘laydi. O‘qituvchining aslo amalparast bo‘lmasligini, o‘zi bilmagan narsalar haqida hech qachon so‘zlamasligini, o‘z mavqeidan foydalanib maqtanmasligini, o‘z fikrini birovga tiqishtirishga urinmasligini, hurmattalab va izzattalab bo‘lmasligini, o‘ziga ortiqcha bino berishga odatlanmasligini alohida ta‘kidlaydi. O‘qituvchi o‘z faoliyatida shunday illatlardan xoli bo‘lmasa o‘quvchilar tarbiyasida va, hatto keyinchalik butun jamiyatda odamlar bilan o‘zaro munosabatlarda kechirib bo‘lmaydigan ko‘ngilsizliklar yuz berishi mumkinligini ham e‘tibordan chetda qoldirmaydi.

Navoiyning “...ba’zi mudarrislar qiynash yo‘li bilan bolalar ko‘nglini o‘zlariga rom qilmoqchi va kichkintoylarning beqaror tabiatini do‘q-po‘pisa bilan tartibga solmoqchi bo‘ladilar. Ulardan ko‘rinib turgan qo‘pollik yosh bolalardagi kelishmagan xatti-harakatni silliqlashga yirik egovdir”, degan ibratomuz so‘zlari yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi.

Uning fikricha, tarbiyaning maqsadi yosh avlodni xalqparvar, bilimli, eng yaxshi fazilatlarga ega kishi qilib voyaga etkazishdir. Hatto injiq, yalqov, yomon xulqli bolalarni ham tarbiya va o‘qitish yo‘li bilan yaxshi fazilat egasi qilib tarbiyalash mumkin. Navoiy o‘qituvchining bir qancha ijobiy sifatlarini-qat’iyligi, mehnatsevarligi, bilimdonligi, mehribonligi, hatto, tashqi qiyofasi, saranjom-sarishtaligi, ozodaligi, yaxshi odatlari, chiroyli qaddi-qomati va yurish-turishlari bilan hammaga namuna bo‘lishini, yoshlarga ularning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashishni, shuningdek, tarbiya ishi juda ham mashaqqatli

va murakkab ish ekanligini alohida e'tirof etadi.

Husayn Voiz Koshifiy o'qituvchining kasbiy va shaxsiy fazilatlari, ulardan o'rinli va samarali foydalanish qoidalari haqida fikr yuritib, "Muallimlar dono, bilimli, shirinsuxan, adolatli bo'lishi zarur. Murabbiy bolaga nasihat va ta'lim berishda lutf va odob qoidalariga rioya qilishi darkor. Jamoatchilik joylarida bolaga pand berish yaramaydi, balki xilvat joyda bolaga gapirish zarur.

Agar murabbiy nasihat berishning fursati kelganini bilsa, unga muloyimlik bilan murojaat qilishi lozim; chunki bizning zamonamizda muloyim va xushfe'l bo'lish maqsadga muvofiqdir",- degan xulosaga keladi. Yana u "Har kishida muloyimlik, xushmuomalalik bor bo'lsa, fayz, kamol topishdan o'zga ehtimol yo'qdir. Har kishi badfe'l bo'lsa, vayron bo'lishdan boshqa chora yo'qdir. Xushfe'llik, muloyimlik hamma ne'matlarning yaxshirog'idir", deb ogohlantiradi Koshifiy.

Xullas, yuqoridagilarga asoslanib aytish mumkinki, o'qituvchining kasbiy tayyorgarligiga, o'qituvchi shaxsi va faoliyati uchun zarur bo'lgan muhim kasbiy sifat va fazilatlarga, o'quv-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etishning ijtimoiy-madaniy va milliy-psixologik xususiyatlariga sharq mutafakkirlari va ma'rifatparvar ziyolilari alohida e'tibor bilan qaraganlar.

Ayniqsa, o'quv-tarbiya jarayoni uchun javobgar, uning asosiy sub'ekti hisoblangan o'qituvchi shaxsi va faoliyatiga xos zaruriy sifat va fazilatlar shakllangan bo'lishi, ular o'zlariga tegishli burch hamda vazifalarni sadoqat bilan ado etishi, bolalarga mehribon, g'amxo'r, adolatli va kechirimli bo'lishi eng muhim qadriyat sifatida e'zozlangan. Buyuk ajdodlarimizning ta'limotlarida mujassamlashgan o'qituvchining kasbiy sifatlarining milliy-ruhiy xislatlariga xos qimmatli ma'lumotlar hozirgi davrda xam bo'lg'usi o'qituvchilar kasbiy muhim sifatlarini takomillashtirishda, o'quv-tarbiya jarayonlari samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, o'qituvchi to'g'risida buyuk ajdodlarimizning ijtimoiy-tarixiy ta'limotlari negizida ham har bir o'qituvchini shakllantirishning

pedagogik-psixologik omillariga jiddiy e'tibor qaratish taqozo etiladi. Zero o'ziga xos psixologik tamoyillarga amal qilinmagan joyda o'qituvchi faolligi va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni bir muncha past saviyada tarkib topishi mumkin. Bunga esa aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. SHu nuqtai nazardan tadqiqotning keyingi bosqichida uzoq va yaqin xorijda o'qituvchi faoliyatini shakllantirishning aynan psixologik jihatdan o'rganilishi bilan bog'liq ilmiy mushohadalarni bayon etamiz.



## **1.2. Gandbol murabbiyining kasbiy muhim sifatлари xorij psixologlarning o‘rganish ob‘ekti sifatida.**

Uzoq va yaqin xorij psixologlarining ilmiy tadqiqotlarini o‘rganar ekanmiz, o‘qituvchi shaxsining kasbiy muhim sifatlarining psixologik asoslari va bu jarayonga ta’sir etadigan ijtimoiy-madaniy, milliy-hududiy va pedagogik-psixologik omillarning ahamiyatiga doir qimmatli ilmiy natijalar qayd etganligini ko‘ramiz.

A.Bandura va G.V.Kapraralarning ta’kidlashicha, o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligida o‘quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va o‘quvchilar psixologiyasiga xos qonuniyatlarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchining shaxslilik va kasbiy tayyorgarlik darajasi (obro‘-e’tibori, namunasi) qanchalik yuqori bo‘lsa, o‘quvchilar bilan ta’lim va tarbiyaviy munosabatlarni yaxshi yo‘lga qo‘ysa, o‘qituvchining fikrlari, o‘quvchi xulq-atvori va mehnatiga berayotgan bahosi uning o‘z yutuq va nuqsonlarini qanday izohlashlariga ta’sir etadi.

O‘quv-tarbiya jarayonida erishilgan yutuqni o‘quvchining o‘zi izohlab berishi tasodif yoki omad kelishi deb bilishdan ko‘ra kuchliroqdir. O‘quvchilarning xizmati tan olinadigan, to‘g‘ri baholanadigan ta’limiy jarayon, o‘zi yaxshi o‘qishi mumkinligi to‘g‘risida tasavvur va bilim egallashga bo‘lgan ijobiy munosabatlarning shakllanishiga yordam berishi mumkin. O‘qituvchining shaxsiy namunasi va obro‘-e’tibori ta’lim-tarbiya jarayonida bolada qat’iy nuqtai nazar shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

M.Talen taklif etgan pedagogik muloqot uchun zarur bo‘lgan o‘qituvchining professional pozitsiyasi (kasbiy nuqtai nazari) tipologiyasi diqqatga sazovordir. Mazkur tipologiyaga ko‘ra:

1. “Sokrat” modeli – bunday o‘qituvchi dars jarayonini munozara asosida tashkil etadi.

2. “Jamoaviy munozara rahbari” modeli – bunday o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning o‘zaro kelishuv va hamkorligini demokratik asosda olib boradi.

3. “Usta” modeli – bunday o‘qituvchi o‘quvchilar uchun hamma sohada andoza ob’ekti hisoblanadi.

4. “General” modeli – bunday o‘qituvchi o‘quvchilarga talabchan bo‘lib, o‘quvchilarning burch va vazifalarini to‘liq ado etishlarini ta’minlashni boshqaradi.

5. “Intiluvchi” modeli – o‘quv-tarbiya jarayonida tub o‘zgarishlar qilishga yo‘nalgan o‘qituvchi. U sinf jamoasi faoliyati samaradorligini oshirishga, o‘quvchilarning tashabbuskorligi va mustaqilligini rag‘batlantiradi.

6. “Trener” modeli – o‘qituvchi o‘quvchilarning bir maqsad sari, hamjihat va hamkor faoliyatini ta’minlaydi va boshqaradi.

7. “Git” modeli – bunday o‘qituvchi go‘yoki jonli ensiklopediya. Uning gap-so‘zlari aniq, jonli, ilmiy asoslangan va hamma savollarga javoblar oldindan ma’lum.

O‘qituvchining kasbiy muhim sifatlari va pedagogik faoliyatini tashkil etish masalalariga gumanizm nuqtai nazaridan yondashgan A.Maslou, K.Rodjerslarning tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Ularning fikricha, o‘qituvchi eng avvalo o‘quv-tarbiya jarayonida o‘quvchilar faolligini oshirishni esdan chiqarmasligi, yuzaga kelgan muammolarni mustaqil echishga o‘rgatishi, o‘quvchi tashabbuskorligi va ijodkorligi asosida o‘zining kimligini namoyish etishiga yordamlashishi zarur. Buning uchun o‘qituvchi shaxslilik hamda kasbiy sifat va fazilatlarni to‘liq egallagan bo‘lishi lozim.

K.Rodjersning ta’kidlashicha, bunday o‘qituvchilar o‘quvchilar bilan ko‘proq do‘stona muloqotda bo‘ladilar, o‘zaro fikr almashadilar, mavzuga doir muammoni tahlil qiladilar va bir qarorga keladilar. O‘qituvchi bu o‘rinda butun e’tiborini mavzu mohiyatini o‘quvchilarga singdirishga qaratib, ular e’tiborini,

kechinmalarini va o'zlashtirish imkoniyatlarini alohida e'tiborga oladi.

A.Maslouning fikricha, o'qituvchi shaxsiga xos bo'lgan bilimdonlik, ijodkorlik, mustaqillik hamda pedagogik faoliyat uchun mas'uliyat va javobgarlikni chuqur his etishi o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlashning eng muhim omillaridir.

Boshqa nazariyotchi Gizela Leybouvi-Vifning fikricha, talabalarda kasbni egallashning shakllanishi ularda majburiyat va javobgarlik hissining tarkib topishi bilan bog'liqdir. Ularda ana shunday sifat va kechinmalar to'la shakllangan bo'lsa, bilimlarni egallash yoki kasbiy kamolot uchun hech narsa to'siq bo'la olmaydi.

Bo'ysunuvchanlikni o'rganish maqsadida psixologik tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lib, ulardan eng muhimi Salomon Ashning izlanishlaridir. Uning ta'kidlashicha, konformizm va bo'ysunuvchanlik o'ziga-o'zi baho berish psixologik hodisasi bilan chambarchas bog'liqdir. O'ziga yuqori baho beradigan odamlar guruh talabalariga bo'ysunishga kamroq moyildirlar. O'ziga-o'zi past baho beradigan, o'z imkoniyatlariga uncha ishonmaydigan shaxslar esa guruh ta'siriga ko'proq duchor bo'lar ekanlar. M.Vudstok va D.Frensislar o'z tadqiqotlarida hamkorlik faoliyatida atrofdagilarga muvaffaqiyatli ta'sir ko'rsatadigan omillar sirasiga quyidagilarni kiritadi:

- nufuzlilik – bu ishonch qozona oladigan insonlarning xususiyatlari;
- ijobiy o'zgarishlarni taqdirlamoq (mukofotlamoq) lozim;
- bizning orzu-umidlarimiz atrofdagilarga ta'sir ko'rsatadi;
- xalq oldida (oshkora) o'z fikrini bildirish yangicha munosabatni mustahkamlaydi;
- o'zimiz o'rgatganimizga, avvalo o'zimiz rioya qilishimiz kerak;
- shaxsiy hamjihatlik – bu (hal qiluvchi) muhim yo'l ochib beradigan omildir. Ularning fikricha, atrofdagilarga samarali ta'sir ko'rsatuvchi odamlar

reklama va muvaffaqiyatli taqdimot ko'nikmalariga (mahoratiga) egadirlar. Ular qat'iy biror-bir ish qilishga undaydigan sabablarni yaratishga qodirdirlar.

Amerikalik olim, maktabda falsafa o'qitish dasturlarini yaratish guruhining a'zosi P.Lipmanning ta'kidlashicha, maktab yoshi davri ta'lim olish shakllari imkoniyatini kengaytiradi. O'qitish jarayonida o'quvchilarni majburlashga emas, balki ularga ta'lim berishda ixtiyoriy va qadriyatlarga asoslangan kognitiv (aqliy bilish) yondashishni taklif etadi. Ularni o'qitishda majburlash holatlarining salbiy oqibatlarini tahlil qilib, ularga ta'lim berishda ixtiyoriylik va qadriyatlarga asoslanishning afzalliklari va o'quvchilarni tarbiyalashdagi samarasini ko'rsatib o'tadi.

D.Levi o'z tadqiqotlarida o'quvchilar jamoasida nizolarning shakllanish sabablari, ularni o'rganish, oldini olish yo'llari va jamoada sog'lom psixologik muhitni yaratish usullariga doir ijobiy fikrlarni ilgari suradi. Uning fikricha, o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi davrida o'quv-tarbiya jarayonlariga xos nizolarni tushunish ko'nikmasini o'stirish, shuningdek, mojarolarning sabablarini o'rganish va bartaraf etish yoki boshqarishning samarali vositalarini topa bilish mahoratlarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Uning ta'kidlashicha, o'quv dasturlarida, bir tomondan, nizolarning kelib chiqishi va sabablari bilan bog'liq, ikkinchi tomondan, mojarolarning oldini olish, hal etish va ularni boshqarish bilan bog'liq masalalarni (savollarni) aks ettirish zarur.

D. Levi misol tariqasida boshlang'ich ta'lim (6-12 yoshli bolalar) uchun quyidagi mashg'ulot variantlarini keltiradi: 1)kooperativ ko'nikmalar (guruhda birgalikda o'qish va hamkorlik); 2)kommunikativ ko'nikmalar; 3)nizolarni ijodiy (o'ylab, maslahatlashib) hal qilish ko'nikmasi. Mazkur mashg'ulot variantlarida rolli o'yinlar, sahna ko'rinishlari va psixologik xulqiy treninglardan o'rinni foydalanish zarurligi va uning afzalliklari haqida to'xtalib o'tadi.

D.Jonson va R.Jonsonlarning tadqiqotlariga ko'ra, o'quvchilar o'rtasida yuzaga keladigan mojarolarni konstruktiv boshqarishning uchta muhim asosi mavjud:

- ta'lim va tarbiya berish manfaatlaridan kelib chiqqan holda maktabda qulay va tinch shart-sharoitlarni yaratish;

- mojarolarning oldini olib, bolalarning o'qishga, bilim egallashga nisbatan e'tiborini, qiziqish va motivlarini oshirish usullaridan samarali foydalanish, ularda muammolarni echishga ijodiy yondashish ko'nikmasini rivojlantirish;

- yosh avlodni o'z turmushida, oilada, jamiyatda, milliy va xalqaro vaziyatlarda nizolarni konstruktiv boshqarishga tayyorlash.

Mualliflarning fikricha, o'quvchilar jamoasida hamkorlikni shakllantirishning uchta sharti mavjud: kooperativ ta'lim; o'quv-munozarali ta'lim; mediatsiya (xolis xizmat muhiti ustuvor) ta'limi.

1. Kooperativ ta'lim nizolarni konstruktiv hal etishga shart-sharoit yaratadi. O'quv mashg'ulotlarini kooperativ shaklda tashkil etish yo'li bilan qulay vaziyatlar hosil qilinadi. Mazkur ta'limda musobaqalashib hamkorlik asosida yuqoriroq natijalarga erishiladi, o'quvchilar orasida do'stona munosabatlar, yaxshiroq psixologik muhit va moslashuv shakllanadi.

2. O'quv-munozarali ta'limning afzalligi shundaki, sinf o'quvchilari juft-juftlarga yoki guruhchalarga bo'linib, har bir juft yoki guruh mavzu mohiyatiga doir o'z nuqtai nazarini himoya qilish uchun dalillar hozirlaydi.

Munozara jarayoni asosan quyidagi beshta bosqichda amalga oshadi: axborotlarni to'plash va nutq (javob) tayyorlash; o'z nuqtai nazarini (pozitsiyasini) aytish va uni himoya qilish; qarama-qarshi pozitsiyaga duch kelish, to'qnashish oqibatida g'oyaviy nizo kelib chiqishi; qo'shimcha axborotni izlash hamda masalani bir vaqtning o'zida tomonlar nuqtai nazaridan turib o'rganish; ikkala tomonning ham qarashlarini yaqinlashtirib, g'oyalarni qayta ko'rib chiqish asosida

nuqtai nazarlarni muvofiqlashtirish.

3. Mediatsiya (xolis xizmat muhiti ustuvor) ta'limi o'quvchini boshqalar nizolashayotganda murosaga keltirishga xolisona vositachilik qilishga o'rgatishdan iborat. Mualliflar bu jarayonni quyidagi algoritm bilan ifodalaydi: o'z xohishingizni ayting; o'z hissiy kechinmalaringizni bildiring; istak va kechinmalaringizning sabablarini ayting; raqibingiz nimani istayotgani, nima uchun shunday fikr bildirayotgani haqidagi tushunchalaringizni umumlashtiring; mojaroni echishning uchta alternativ (muqobil) yo'lini toping; ma'qul yo'lni tanlang, qo'lni-qo'lga bering

O'quv-tarbiya jarayonlarini yuqoridagi ko'rinish va usullarda tashkil etish, eng avvalo o'qituvchilardan yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlikni, pedagogik mahorat va psixologik bilimdonlik, shuningdek, pedagog shaxsiga xos qator sifat va fazilatlarni talab etadi.

Mazkur muammo bo'yicha rossiyalik psixolog olimlarning ilmiy tadqiqotlari alohida e'tiborga loyiq.

S.L.Rubinshteynning uqtirishicha, tarbiyaviy ishda insonni hayot bilan minglab ko'zga ko'rinmas iplar bog'lab turadiki, har qadamda unga shaxsan qimmatli, uni qiziqtiradigan, o'ziga jalb etadigan, o'ziniki hisoblanadigan narsalar ko'ndalang kelaveradi. Bu fikr yosh mutaxassislarning professional pedagogik shakllanishi va o'zligini namoyon etishi masalasiga ham to'la taalluqlidir. Zero, professional sohada o'zini namoyish etishga intilish yosh o'qituvchi uchun kasbiy shakllanish va takomil topishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

V.M.Myasishchevning ta'kidlashicha, shaxs o'zini namoyon qilish orqali o'z imkoniyatlarini ongli ravishda ko'rsatadi. Shaxs uchun nima muhim ahamiyatli bo'lsa, nimaga ko'proq qiziqsa, intilsa, o'sha sohada o'zini to'laroq namoyon qiladi. Shuning uchun ham yosh mutaxassis pedagogik faoliyat sohasida o'zini qanchalik ko'proq, to'laroq va ongli ravishda namoyon etsa, shu sohada ko'proq natijaga erishadi. Ikkinchi tomondan, yosh o'qituvchi o'zini kasbiy faoliyat

sohasida namoyon etish uchun qanchalik jadal kurashsa, kasbiy shakllanishda, kasbiy etuklikda shunchalik yuqori pog'onaga ko'tariladi. SHuning uchun ham pedagoglarni kasbiy tayyorlashda o'z kasbiga ijobiy munosabatni, shaxsning o'zi uchun ahamiyatli ongli munosabatni shakllantirish, shu sohada o'zini ko'proq, to'laroq namoyon etishga intilishi va tayyorligi juda muhim.

V.A.Slastenin, V.P.Kashirinlarning fikricha, o'zini namoyon qilish asosan ijtimoiy muhit bilan shaxsning faoliyat ko'rsatishi o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonida yuzaga keladi. Garchi, shaxsning o'zligini, o'z xulqini namoyon etishning psixologik mexanizmlari bevosita uning o'zida bo'lsa ham, ana shu xulqi, xatti-harakatlari, qiliqlari, muomala-munosabat ko'rinishlari uning faoliyati orqali ijtimoiy muhitda sodir bo'ladi.

Jumladan, yosh mutaxassisning kasbiy pedagogik jihatdan o'zini namoyon etish sohalari kasbiy pedagogik faoliyat, biror ijtimoiy rolni bajarish va ijtimoiy-psixologik (jamoadagi o'zaro munosabatlar) tizimidan iborat. Mualliflarning ta'kidlashicha, shaxsning o'zini namoyon etishi kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan yosh pedagog uchun ham to'la taalluqli bo'lib, u asosan uch bosqichda: tayyorgarlik bosqichi, asosiy bosqich va yakunlovchi bosqichlarda amalga oshadi.

Tayyorgarlik bosqichida shaxs o'zligini aniqlaydi, ya'ni o'zini namoyon qilish ehtiyojini anglaydi, o'z nuqtai nazarini, atrof-borliqqa munosabatini belgilaydi, faoliyati maqsadlarini oydinlashtiradi, jamoaning rasmiy va norasmiy tuzilmalarida o'zining o'rni va rolini aniqlaydi, o'z xatti-harakatlari, xulq-odobi, ko'zlagan maqsadlarini ro'yobga chiqarishning vosita va usullarini asoslab, belgilab oladi. Asosiy bosqich shaxsning o'zini namoyon qilish maqsadlarini amalga oshirish jarayonidir. Yakunlovchi bosqichda-shaxs o'zini namoyon etish sohasida erishgan natijalar baholanadi, qiyinchiliklarning sabablari aniqlanadi. O'z o'rnini to'g'ri belgilab olish – o'zini namoyon etishning muhim bosqichi hisoblanib, uning mazmuni va xarakterini belgilaydi, erishilgan natija ham shunga yarasha bo'ladi.

B.G.Ananev ilmiy maktabi tadqiqotchilarining ma'lumotlariga ko'ra, talabalik yosh davri intellekt tuzilmasining o'ta murakkabligi, o'zgaruvchanligi va individualligi bilan namoyon bo'ladi. Buning ma'nosi shundaki, o'quv-biluv topshiriqlarini har doim bir vaqtning o'zida ham tushunish, ham anglab olish (fikrlash), ham esda qoldirish, ham esda saqlash hamda amalda qo'llashga yo'naltirilgan bo'ladi. Muallifning ilmiy tahlillariga ko'ra, talaba o'quv faoliyatining sub'ekti sifatida uning asosiy faoliyati ikki xil motiv (faoliyatga undovchi kuch) – maqsadga erishish motivi hamda bilish motivlari bilan belgilanadi. Bilish motivi o'quv-biluv faoliyatining asosi bo'lib, fikrlash va aqliy faoliyat tabiatiga mos keladi. Bu, muammoli vaziyatlarda paydo bo'ladi, talaba bilan o'qituvchining o'zaro aloqa va to'g'ri munosabatlarida rivojlanadi. Ta'limda maqsadga erishish motivi esa bilish va kasbiy motivlarga uzviy bog'liq (qaram) bo'ladi.

N.F.Talizina oliy ta'lim muassasalarida kasbiy tayyorgarlik jarayonining muammolari haqida to'xtalib, oliy ta'limning boshqaruv tizimi sifatida o'ziga xos xususiyati shundaki, avvalo boshqariladigan ob'ekt – o'qish, bilim egallash jarayonini hamma vaqt aniq bir shaxs amalga oshiradi. SHaxsiy omillarning murakkabligi, har xilligi shu darajada kattaki, ta'limning asosiy dasturini tuzishda ularning hammasini e'tiborga olib bo'lmasligini ta'kidlaydi.

E.A.Klimovning fikriga ko'ra, pedagoglik kasbi "inson-inson" tipidagi mutaxassisliklar qatoriga kiradi va bunday kasb egasi quyidagi xususiyat va qobiliyatlarni egallagan bo'lishi kerak: boshqarish, o'qitish, tarbiyalay olish; boshqa odamni tinglay olish va tushunish; onglilik, keng bilim va saviyaga egalik; nutq madaniyatini egallaganlik; kishilarga nisbatan hushyor, ularning ruhiy olamini ko'z oldiga keltira oladigan; bolani kelajakda yaxshi odam bo'lib ulg'ayishiga ishonuvchi; qayg'udosh, boshqaning tashvishlariga sherik bo'la oladigan; kuzatuvchanlik qobiliyatiga ega; xalq, jamiyat ishiga sodiq; o'zgacha vaziyatlarda ham muammoning echimini topa oladigan; o'zini tuta bilish qobiliyati.



O'qituvchilik kasbi sohiblariga to'g'ri kelmaydigan xususiyatlar: tili chuchuk yoki yaxshi gapira olmaslik, odamovi, mug'ombir-ichi qora, o'zi bilan o'zi ovora, muloqotga kirisholmaydigan, jismoniy nuqsonli, tepsa-tebranmas (tanbal), birovning dardiga befarq, g'arazgo'ylik kabilardir.

N.V.Kuzmina va uning shogirdlari ishlab chiqqan pedagogik qobiliyatlar konsepsiyasi pedagogik qobiliyatlar tizimining bir qadar to'la va mukammal talqini hisoblanadi. Muallif pedagogik faoliyatning sub'ektiv omillariga quyidagilarni kiritadi: 1) shaxsning yo'nalganligi. 2) qobiliyatlarining o'sish darajasi. 3) kompetentligi (maxsus bilimlarga – pedagogika, metodika va psixologiya fanlarining turli sohalariga doir chuqur bilimga egaligi).

N.V.Kuzminaning fikriga binoan, shaxsiy yo'nalganlik kasbiy-pedagogik faoliyatning yuqori cho'qqisiga erishish uchun eng muhim sub'ektiv omillardan hisoblanadi. Pedagogik faoliyatning bosh strategiyasini tanlash muallifning asarlarida ko'rsatilishicha uch xil yo'nalishni:

1. Haqiqiy pedagogik.

2. Formal pedagogik.

3. Qalbaki pedagogik yo'nalishlarni qamrab oladi. Faqat birinchi (haqiqiy pedagogik) yo'nalishgina pedagogik faoliyatda yuksak natijalarga erishishga imkon beradi. Haqiqiy pedagogik yo'nalish bu-o'qituvchining o'zi dars berayotgan predmet vositasida o'quvchi shaxsini shakllantirishga bo'lgan barqaror motivlar va undagi mavjud bilimlar, o'quvchi egallashi uchun zarur ehtiyojlarni shakllantirishdan iboratdir.

A.K.Markovanning fikriga ko'ra, pedagogik faoliyatning sub'ektiv xususiyatlarini quyidagi guruhlar (blokklar) bo'yicha tavsiflash mumkin:

1. Ob'ektiv tavsiflar: ixtisoslikka doir bilimlar, kasbiy malakalar, psixologik-pedagogik bilimlar.

2. Sub'ektiv tavsiflar: psixologik nuqtai nazari, motivlari, "men" g'oyasi, yo'l-yo'riqlari, shaxslik xususiyatlari.

A.K.Markova o'qituvchilik ishining uchta jihatini: pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot va o'qituvchi shaxsi tomonlari mavjudligini ta'kidlaydi. A.K.Markova o'qituvchining muhim kasbiy sifatlari qatorida: pedagogik eruditsiya, pedagogik maqsadga yo'nalganlik, pedagogik tafakkur, pedagogik zukkolik, pedagogik ko'tarinki kayfiyat, pedagogik kuzatuvchanlik, pedagogik ishonch, pedagogik topqirlik, pedagogik bashorat, pedagogik refleksiya (o'zini namoyon qilish) larni ko'rsatib o'tadi.

L.M.Mitinaning tadqiqotlarida o'qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatlarining ellikdan ortiqrog'i qayd etilgan (o'rganilgan). Ular quyidagilar: xushmuomalalik, o'ylovchanlik, talabchanlik, ta'sirlanish, tarbiyalanganlik, e'tiborlilik, o'zini tuta bilish, muloyim xulqlilik, insonparvarlik, ishchanlik, intizomlilik, vijdonlilik, bag'ri kenglik, saxiylik, g'oyaviy e'tiqod, tashabbuskorlik, siyosiy onglilik, kuzatuvchanlik, tanqidiylik, qat'iylik, mantiqiylik, bolalarni sevis, mas'uliyatlilik, hozirjavoblik, tashkilotchilik, muloqotga kirisha olish, tartiblilik, to'g'rilik, pedagogik bilimdonlik, oldindan ko'ra bilish, mustaqillik, o'ziga tanqidiy yondashish, kamtarlik, adolatlilik, hushyorlik, jur'atlilik, kamolotga intilish, pedagogik odob va o'z qadr-qimmatini saqlay bilish, yangilikka intilish, emotsional ko'tarinkilik, vatanparvarlik. Uning fikricha, mazkur xususiyatlar ideal o'qituvchining psixologik qiyofasini tashkil etadi.

N.D.Levitov o'qituvchining asosiy pedagogik qobiliyatlari sirasiga quyidagilarni: o'quvchilarga bilimlarni qisqa, aniq va qiziqarli shaklda etkaza olish; ular ruhiyatidagini anglay olish; tafakkurning mustaqilligi va ijodiyligi; topqirlik yoki tez va aniq bilib olish; tashkilotchilik qobiliyatlarini kiritadi.

V.A.Krutetskiy o'qituvchining pedagogik qobiliyatlarini umumiyroq tarzda ifodalab, quyidagicha guruhlashtiradi:

1. Didaktik qobiliyatlari; 2. Akademik qobiliyati; 3. Perseptiv qobiliyati; 4. Nutq qobiliyati; 5. Tashkilotchilik qobiliyati; 6. Avtoritar qobiliyati; 7. Kommunikativ qobiliyati; 8. Pedagogik bashorat qobiliyati; 9. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati.

Ko‘rinadiki, xorij psixologiyasida o‘qituvchilarning kasbiy muhim sifatlarining psixologik xususiyatlari muammolarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar ancha salmoqli va keng qamrovlidir. Ana shunday tadqiqotlarni ko‘plab keltirib, o‘rganilayotgan mavzu xarakteriga mos tomonlarni atroflicha tahlil qilish mumkin edi. Biroq, mazkur ilmiy izlanishlar natijalari, ulardagi ilmiy tavsiya va xulosalar ma’lum darajada cheklanganlik xarakteriga egadir.

Chunki, o‘qituvchining kasbiy sifatleri hamda ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etish, uni boshqarish bilan bog‘liq muammolar, yoxud ularning echimi har bir xalqning milliy-madaniy, o‘ziga xos psixologik va hududiy xususiyatlari mavjudligi bilan uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi. SHunga ko‘ra, ushbu tadqiqotlar natijasida erishilgan yutuqlarga yuqori baho bergan holda, bu ilmiy dalillarni o‘zbek ta’lim tizimi va o‘qituvchi kadrlar tayyorlash mazmuni uchun to‘la taalluqli deya olmaymiz. Shubhasiz, bu borada vatanimiz psixolog olimlarining tadqiqot natijalarini o‘rganib, psixologik tadqiqotlar o‘tkazishga zarurat tug‘iladi.

### **1.3. O‘zbekiston psixologlari tadqiqotlarida o‘qituvchi kasbi masalasi.**

O‘qituvchi kadrlar kasbiy sifatalarining muhim jihatlarini o‘rganish va uni ilmiy jihatdan asoslash mustaqillik yillarida pedagogika fanlarining ham ustuvor vazifasiga aylandi. Jumladan, keyingi yillarda mazkur muammo bo‘yicha B.N.Sirliiev, Y.M.Asadov, Sh.G‘.Saparov, D.N.Arziqulov, S.Lashin, M.Y.Maxkamova, N.D.Maxmudova, G.I. Maxmutova, G.N.Najmiddinova, R.U.Nurjonova, D.Sh.Olimova, M.Ochilov, B.X.Raximov, R.G‘.Safarova, M.Quronov, N.M.O‘rinova, S.Usmonov, T.G‘afforova, O.Q.Haydarovalarning amalga oshirgan tajribalari e‘tiborga loyiqdir.

O‘qituvchilar kasbiy muhim sifatlarining turli psixologik jabhalarini o‘rganish keyingi yillarda psixologiya ham fanining keng tadqiqot ob‘ektiga aylanib bormoqda. Bu sohada M.G Davletshin, E.G‘. G‘oziev, V.M. Karimova, B.R.Qodirov, G‘.B.Shoumarov, R.Z.Gaynutdinov, A.M. Jabborov, V.A.Tokareva, Sh.R.Barotov, Z.T.Nishonova, R.I.Sunnatova, N.S.Safoev, G.Berdiev, B.T.Gappirov, S.X.Djalilova, M.Qoplono,va, M.M.Mavlanov, N.M.Majidov, A.M.Mashkurov, N.H.Muratalieva, X.A.Ruxieva, Sh.A.Eshmetov, K.B.Qodirov, E.A.Xidirov va boshqalar tomonidan olib borilayotgan psixologik tadqiqotlar diqqatga sazovordir.

Psixolog olim M.G. Davletshin tadqiqot natijalariga tayangan holda zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi haqida qimmatli ma’lumotlarni taqdim etadi. Uning fikricha, zamonaviy o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatlari uning kasbiy tayyorgarligi va mehnat faoliyati davomida uzluksiz rivojlanib, takomillashib boradi.

M.G.Davletshin hozirgi ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogda muallimning shaxsiga, kasbiga xos xislat va fazilatlarning mujassam bo‘lishi, ulardan o‘qitish va tarbiyalash jarayonida o‘rinli, me’yorida foydalana olish zarurligini nazarda tutadi. Ular: 1) o‘qituvchining shaxsiy xislatlari, 2) kasbiy bilimi, 3) kasbiy xislatlari, 4) shaxsiy pedagogik uddaburonligi, 5) tashkilotchilik

malakalari, 6) kommunikativ malakalari, 7) gnostik malakalari, 8) ijodiy xislatlari ekanligini ko'rsatib o'tadi. SHu bilan bir qatorda, olimning ta'kidlashicha, o'qituvchi o'z faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagogik qobiliyatlarning muhim komponentlari: 1) didaktik qobiliyat, 2) akademik qobiliyat, 3) perseptiv qobiliyat, 4) nutq qobiliyati, 5) tashkilotchilik qobiliyati, 6) avtoritar qobiliyat, 7) kommunikativ qobiliyat, 8) pedagogik ijodiy xayol, 9) diqqatni taqsimlay olish qobiliyatini egallagan bo'lishi shart. Olimning mulohazalariga ko'ra, bulardan tashqari yana o'qituvchining ezgu maqsad sari intilishi, mehnatsevarligi, qat'iyliigi, kamtarligi, haqgo'yliigi, sadoqatli bo'lishi, namunali xulqi, yurish turishi, o'zini tuta bilishi, tashqi qiyofasi, xullas, uning milliy va umuminsoniy axloq me'yorlariga mos keluvchi sifat hamda fazilatlarni egallashi uning o'z kasbiy faoliyatiga tayyorligi va o'quv-tarbiya jarayoni samarasini ta'minlovchi muhim omillar ekanligini e'tirof etadi.

Psixolog olim E.G'.G'ozievning oliy ta'lim muassasalarida bo'lg'usi o'qituvchilar kasbiy tayyorgarligining dolzarb muammolari bo'yicha olib borgan tadqiqotlari tahlillariga ko'ra, kasbiy tayyorgarlikning sifati asosan uchta muhim omilga bog'liqdir:

1. Talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar va ko'nikmalarning puxtaligi, barqarorligi va mustahkamligiga;
2. O'quv va tarbiyaviy ishlarni oqilona tashkil etish va nazorat qilish sifatiga;
3. Talabalarni mustaqil (faol va ijodiy) ravishda oqilona bilim olishga o'rgatish va bu sohada muayyan maslahatlar, tavsiyalar berib borishga.

Olimning ta'kidlashicha, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladigan, uning sifat darajasini orttiradigan zarur shart-sharoitlarni besh jabhaga ajratish mumkin.

1.Oliy maktab tuzilishining etnik, etnopsixologik va xududiy xususiyatlariga asoslanib uni qayta qurish maqsadga muvofiqligi.

2.Oliy o‘quv yurtlarida talabalarni o‘qitish, shaxs sifatida shakllantirish jarayoni hozirgi zamon talablariga to‘liq javob bera olishi.

3.Oliy maktab o‘quv rejasi, dasturi va ularga asoslangan darsliklar, qo‘llanmalar, ishlanmalar, ma’ruza matnlari hozirgi kun hayot tarzini, fan yutuqlari va zarur axborotlarni, ilg‘or tajribalarni, mamlakatimiz xududlari xususiyatlarini to‘liq va asosli aks ettirishi.

4.Talabalarda mustaqil fikrlashni shakllantirish, ijodiy izlanishga o‘rgatish, tanqidiy tafakkurni tarkib toptirish.

5.Talabalarni milliy g‘oya va milliy istiqlol mafkurasi ruhida tarbiyalash orqali ularda vatanparvarlik, insonparvarlik, fidoyilik, mehnatsevarlik kabi yuksak his-tuyg‘ularni shakllantirish.

Shuningdek, olim o‘z izlanishlariga asoslanib,bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning auditoriyadan tashqari faoliyatlarida bilimlarni o‘zlashtirishni takomillashtirish yo‘l-yo‘riqlari; talabalarning umumkasbiy fanlar asoslarini o‘rganishga yo‘naltirilgan qiziqishlari, ehtiyojlari, motivatsiyasi, qobiliyati va dunyoqarashiga xos xususiyatlarni e’tiborga olgan holda, ularga zarur maslahat va tavsiyalar berib borish tartiblari haqida; talabalarning psixologik xususiyatlari, tafakkur xususiyatlari va ularda mustaqil fikrlashni shakllantirish vositalari to‘g‘risida ham qator tavsiya va ilmiy echimlarni olg‘a suradi. Olimning fikricha, komil inson bo‘lib kamol topishni ezgu niyat qilgan bo‘lg‘usi o‘qituvchi ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma’naviyat va qadriyatlar tizimini egallashi hamda kelajak rivojini ta’minlashi uchun avvalo o‘zlarida mustaqil fikrlashni, ijodiy izlanishni va aqliy faoliyat usullarini shakllantirishi maqsadga muvofiqdir.

E.G‘.G‘oziev ko‘p yillik ilmiy izlanishlariga tayanib, bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning kelgusi faoliyatida etakchi va ustuvor qiymatga ega milliy

xususiyatlarini aniqlaydi va ularni maqsadga muvofiq ravishda tartibga keltirib, tavsif beradi: 1) andishalilik, 2) bag'rikenglik, 3) dilkashlik, 4) samimiylik, 5) ibrat-namunaviylik, 6) sabr-toqatlilik, 7) saxovatlik, 8) pedagogik odoblilik, 9) ma'naviy yuksaklik, 10) kasbga sadoqatlilik, 11) yuksak tuyg'ularni egallaganlik, 12) ijtimoiy faollik, 13) nutqiy qobiliyatlik, 14) tashabbuskorlik, 15) tashkilotchilik. Mazkur xususiyatlar bo'lg'usi o'qituvchilarning kasbiy faoliyati samarasini ta'minlashning muhim omillari sifatida xizmat qiladi.

V.M.Karimova oliy ta'lim tizimida o'qituvchilarni kasbiy sifatlarining psixologik xususiyatlarini o'rganish sohasida olib borgan tadqiqotlarida bo'lg'usi pedagoglarni kasbiy tayyorlash, ularda muallim shaxsi va faoliyatiga xos zaruriy sifat va fazilatlarning shakllanishida ijtimoiy-madaniy, milliy-hududiy xususiyatlar muhim o'rin egallashini e'tirof etadi.

O'qituvchi kasbiy muhim sifatlarga ega bo'lishi saboq oluvchilarning erkinligini oshirish va ijodiy ishlashlari (fikrlashlari) uchun zaruriy shart-sharoitni yaratadi.

V.M.Karimova ham o'z tadqiqotlarida talabalarda mustaqil fikr yuritish malaka va ko'nikmalarini hosil qilish uchun, avvalo talaba-o'qituvchi o'zaro munosabatlarini tubdan o'zgartirish, talabani ta'lim jarayonining faol sub'ektiga aylantirish lozimligini ko'rsatadi. Buni samarali tashkil etishning bir qator psixologik shartlari va omillari mavjudligini ta'kidlaydi.

Birinchi, ta'lim beruvchi (ya'ni, o'qituvchi) yoshlarni qanday bo'lsa shundayligicha-iqtidori, layoqati va boshqa imkoniyatlari bilan idrok qilishga, tabiiy tarzda qabul qilishga o'rganmoqlari lozim.

Ikkinchi, har bir ta'lim muassasasi amalda yoshlarga differensial yondashuvni tashkil qilishi va ulardagi psixologik imkoniyatlarni e'tiborga olishi zarur.

Uchinchi, ta'lim muassasasida o'qitishning yangicha texnologiyasi va

yoshlar aqliy faoliyatidan foydalanishning demokratik turlarini joriy etish. Bunda asosiy jihat o'quvchi shaxsini hurmat qilish, uning har bir fikri va yuksalishiga e'tibor bilan qarashdir.

To'rtinchidan, ta'lim jarayonida guruhda psixologiyaning faol, xususan – munozara, dialog, breynshtorming, o'yin va boshqa interfaol metodlaridan keng va o'rinli foydalanish o'quvchiga ko'proq o'z fikrlarini izhor qilish uchun imkoniyat yaratadi.

Beshinchidan, erkin va mustaqil fikrlash uchun psixologik “fazo” va “makon” tushunchalarining ahamiyatini hisobga olib, guruhda ishlash qonunlari va ijtimoiy psixologik mezonlarni to'la inobatga olish zarurligini alohida qayd etadi.

R.Z.Gaynutdinov o'zbek milliy maktabi o'qituvchisining psixologiyasi va uning uzluksiz ta'lim tizimida shakllanishiga doir tadqiqotlarida muallim shaxsining psixologik tuzilishi, hududning milliy-psixologik va milliy-madaniy omillari ta'sirida shakllangan pedagog shaxsining tipologiyasini o'rgandi, uning kasbiy sifatlarini kompleks o'rganadigan ilmiy-metodik jamlanmalar yaratdi, O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining milliy xususiyatlari, shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirishning shakliy tuzilishi va usullariga doir qator ilmiy xulosa va tavsiyalarni ilgari surdi. Olimning tadqiqot natijalari bugungi kun ta'lim tizimida yuzaga keladigan ana shunday turkum muammolarni ijobiy hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

G'.B.Shoumarov ta'lim tizimida psixologik xizmat va uni takomillashtirish muammolariga oid va o'qituvchi kasbiy sifatlarining rivojlanganlik darajasini jahon andozasiga ko'tarish va uyg'unlashtirish sohasidagi tadqiqotlarida bir qator qimmatli g'oyalarni va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tavsiyalarni ilgari suradi. Olimning fikricha, bo'lg'usi o'qituvchi kasbiy tayyorgarlikning belgilangan darajasiga erishishi uchun o'zida mavjud bo'lgan individual-psixologik imkoniyatlar va oliy ta'lim muassasasida mazkur kasbni egallash uchun yaratilgan barcha zaruriy shart-sharoitlardan unumli foydalanishi lozim.



G'.B.SHoumarov o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi bosqichlarida ta'limiy va tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishda psixologik xizmatni belgilangan talab va me'yorlar darajasida yo'lga qo'yish zarurligini ham alohida ko'rsatib o'tadi.

A.M.Jabborov tadqiqotlarida o'qituvchining kasbiy muhim sifatlarining shakillanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik va milliy-madaniy omillar, o'zbek maktabi muallimining psixologik va etnik xususiyatlari hamda ularning ahamiyati keng qamrovli o'rganilgan. Muallif o'qituvchining kasbiy muvaffaqiyati uning shaxsiy va kasbiy sifatleri, hamda milliy psixologik qiyofasi qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi, deb baholaydi. A.M.Jabborovning izohlashicha, hozirgi o'zbek maktabi o'qituvchisining milliy psixologik qiyofasi va uni belgilovchi asosiy omillar quyidagilardan iborat: o'qituvchining atrofdagilarga xushmuomalaligi va hurmat bilan munosabatda bo'lishi; o'qituvchining o'zini tuta bilishi va amaliyotchiligi; o'qituvchining (o'qituvchi ongining) o'z millatiga xosligi; o'qituvchining obro'-e'tibori va ijtimoiy tipga o'xshashligi; o'qituvchining ijtimoiy dadilligi.

Atrofdagilarga xushmuomalalik va hurmat bilan munosabatda bo'lish odati ustunlik qiladigan o'qituvchilarda etarli darajada kasbiy bilimdonlik bilan birga, ijtimoiy-tipik xulqlarida xarakterning quyidagi o'ziga xos psixologik xislatlarini namoyon etadilar: yuqori darajada o'zini nazorat qilish, hissiy barqarorlik, onglilik, oqilona ishonuvchanlik, xushmuomalalik, o'zini ichdan nazorat qilish.

O'zini tuta bilish va amaliyotchilik omili ustun o'qituvchilarning ijtimoiy-psixologik qiyofasida o'zining hissiyoti va kayfiyatini boshqara olish, o'zini nazorat qilish, uyushqoqlik, ijtimoiy intizomlilik, o'ziga ishonish va kirishimlilik yuqori darajada bo'ladi. Ular kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga intiladilar, tashkilotchilik, kommunikativ sifatleri ustunlik qiladi. O'qituvchining o'z millatiga xosligi omili ustun pedagog o'ziga yuqori darajada yaxshi munosabatda bo'ladi, vazmin, bilimdon, o'zini nazorat qila oladi, o'quv faoliyatida tashkilotchilik, axborot almashuv, kommunikativ sifatleri yuqori samaradorlik bilan amalga

oshiriladi.

O‘qituvchining obro‘si va ijtimoiy tipiga o‘xshashlik omili ustun muallimlar pedagogik faoliyatning axborot almashuv, tashkilotchilik, yo‘naltirish, kamol toptirish, kommunikativ sifatlarini etarlicha mohirlik bilan amalga oshiradilar. Ular obro‘-e’tiborli bo‘lib, o‘zini kuchli nazorat qiladi, hissiy barqaror, milliy-madaniy an’analarni yaxshi biladi, qat’iy amal qiladi.

Ijtimoiy dadillik omili ustun o‘qituvchilarda qat’iylik, jur’atlilik, o‘ziga ishonish, muvaffaqiyatga ehtiyoj, ta’sirchanlik, mustaqillik, pedagogik faoliyatning barcha turlari va komponentlarini etarlicha mohirlik bilan amalga oshirish, milliy-madaniy an’analarni bilish va amalda tatbiq etish kabilar boshqa muallimlardagidan ustunroq namoyon bo‘ladi.

R.I.Sunnatova o‘z tadqiqotlarida kasbiy sifatlarining shakillanish davrida bo‘lg‘usi o‘qituvchining o‘zini o‘zi anglashiga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlari to‘g‘risida, mazkur xususiyatlarning o‘quv-tarbiya jarayonlari samaradorligini ta’minlashga va pedagogik faoliyatni takomillashtirishga ta’siri haqida yangicha yondashuvlarni ilgari suradi. Uning ta’kidlashicha, bo‘lg‘usi o‘qituvchi kasbiy sifatlarining shakillanish davrida o‘zini o‘zi anglashi, o‘quv-tarbiya jarayoni va kasbni egallashga ongli munosabatda bo‘lishi, o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalashga xos zaruriy pedagogik-psixologik bilimlar bilan qurollanishi uning pedagogik faoliyati samaradorligini ta’minlovchi muhim omillar hisoblanadi.

Z.T.Nishonova ilmiy izlanishlarining natijasi sifatida bo‘lg‘usi o‘qituvchi kasbiy tayyorgarligi davridayoq o‘quv-tarbiya jarayonlarini yangicha pedagogik texnologiyalar asosida samarali tashkil etishga tayyor va shu asosda o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, o‘rganayotgan har bir muammoga ijodiy yondashish malakalarini shakllantirishning mexanizmlari haqida fikr yuritadi. Olimaning fikricha, bu murakkab jarayonning muvaffaqiyatli rivojlanishi oliy ta’lim muassasalarida talabalar kasbiy tayyorgarligining turli shakllarini tashkil qilishga,

ularning nazariy va amaliy, umumiy va individual bilish faoliyatlarining qulay tarzda uyg'unlashuviga bevosita bog'liqdir. Z.T.Nishonova ishlab chiqqan treninglarda o'quv faoliyatining guruh shakllari amalga oshirilgan. Bu esa o'z navbatida ta'limda har bir o'quvchi uchun yuksak faollik va mustaqillikni ta'minlaydi. Jumladan, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun ham qulay vaziyat yaratadi, har bir sub'ektda o'zini o'zi namoyon qilish ehtiyojini qondirish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Muallif mazkur ta'lim jarayoniga xos o'qituvchining mas'uliyati haqida mulohaza yuritib, shunday deydi "Ta'lim jarayonida o'quvchilarning jamoa bo'lib fikrlash faoliyatini tashkil etishi o'qituvchi uchun yuksak talablar qo'yadi, lekin uning roli kamaymaydi, aksincha murakkablashadi, ularning aqliy taraqqiyoti uchun bevosita rahbarlik qilish zaruriyati vujudga keladi. Ayniqsa, bahslar oldidan sinchkovlik bilan tayyorlanishni va mashg'ulotni mohirona tashkil etishni taqazo etadi. Bunday boshqarishning yuqori darajalari aqliy tashabbuskorlikda shakllanadi, aqliy tashabbuskorlik esa ko'pincha ijtimoiy boshqa ob'ektdagi qarama-qarshi fikrlarni bayon etishda, o'z fikrlarining to'g'riligini muxolifga isbot qilishda, ziddiyatlarni bartaraf qilishning yangi usullarini ochishda namoyon bo'ladi. SHaxsning o'z xohishiga binoan fikrlarini bayon etishi aqliy faollikning kuchli omili sifatida gavdalanadi.

N.H.Muratalieva tadqiqotlarida bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining shaxslilik yo'nalishi haqida to'xtalar ekan, bo'lg'usi boshlang'ich sinf pedagoglarining oliy ta'lim muassasasida tayyorgarlik jarayonida, ya'ni kasbiy etilish sharoitida shaxslilik yo'nalishi eng muhim omil ekanligini qayd etadi. Muallifning ilmiy to'xtamlariga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarida kasbiy tayyorgarlikning muvaffaqiyati, avvalo, bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxslilik yo'nalishini (rivojlanish holatini) aniqlashga, ular kasbni muvaffaqiyatli egallashlari uchun zaruriy shaxslilik yo'nalishini (intellektual xususiyatlar, emotsional irodaviy xususiyatlar, maqsadga erishish motivatsiyasi, shaxsning qo'zg'alish ko'rsatkichi, shaxsning ekstra-

introvertligi, kasbiy qiziqishi va pedagogik faoliyatga qobiliyatligi, pedagogik idroki, talabaning o'quv faoliyati va pedagogik kuzatuvchanligi ko'rsatkichlari) tarbiyalashga, so'ngra oliy ta'lim muassasasidagi o'quv-tarbiya jarayonlarini kasbiy tayyorgarlik bilan uyg'unlashgan shaxslilik yo'nalishiga xos va mos ravishda tashkil etish chora-tadbirlari bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

M.M.Mavlanov tadqiqotlarida oliy o'quv yurtlari ta'limi jarayonida bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tashxisiy malakalarni shakllantirishning psixologik hususiyatlari o'rganilgan. Olimning e'tirof etishicha, kasbiy tayyorgarlik bosqichida tashxisiy bilim-malakalarni egallamagan boshlang'ich sinf o'qituvchilariga yoshlar taqdirini ishonib topshirish mumkin emas. SHu bois, pedagoglarni tashxisiy bilim va malakalar bilan qurollantirish bugungi kun uchun muhim ahamiyat kasb etadi. M.M.Mavlanov tadqiqotlari natijalariga tayanib, ularning samarali faoliyatini ta'minlash uchun diagnostik malakalarning me'yoriy modelini aniqlaydi. Me'yoriy model mezonlariga binoan kasbiy tayyorgarlikni egallagan talabalarda diagnostik malakalar: yuqori, yaxshi, o'rta va past darajada shakllangan bo'lishi mumkin. Kasbiy tayyorgarlik bosqichida talabalar diagnostik malakalarning yuqori va yaxshi darajalarini egallashga erishishi uchun didaktik tizimning asosiy komponentlarini tashkil etgan: psixologiya, pedagogika, maxsus bosqichlar hamda pedagogik amaliyot bilan bog'liq diagnostik tuzilishga ega bo'lgan zaruriy materiallarni o'zlashtirishlari lozimdir.

Vatanimizning psixolog olimlari tomonidan olib borilgan yuqoridagi ilmiy tadqiqotlarda bo'lg'usi o'qituvchining kasbiy sifatlariga doir muammolarning juda ko'p jabhalari o'rganilgan bo'lsa-da, lekin uning milliy-madaniy muhitga xos keng imkoniyatlarini aniqlovchi, shaxsiy va kasbiy barkamolligini ta'minlovchi o'qituvchi shaxsining kasbiy muhim sifatlarining o'ziga xos psixologik asoslari masalasi izlanishlarning vazifalari qatoriga kirmagan. Xuddi shu sababli navbatdagi boblarda mazkur muammoning ilmiy o'rganilishi haqida fikr yuritiladi.

## **II-BOB. TADQIQOTNING MAQSADI, VAZIFASI, USULLARI VA TASHKIL QILINISHI.**

### **2.1 Tadqiqotning maqsadi va tashkil etilishi.**

Gandbol o`yini davomida har bir o`yinchi o`zining shaxsiy fazilat, sifatlarini ko`rsatish imkoniyatiga ega. Lekin shu bilan bir qatorda o`yin har bir gandbolchining shaxsiy intilishlarining umumiy maqsadga bo`ysunishini talab etadi (Sh.K.Pavlov 2008).

Gandbol haqiqiy atletik o`yindir. U tezli, chaqqonlik, chidamlilik, kuch va sakrovchanlik kabi xususiyatlarning rivojlanishiga yordam beradi. O`yin davomida gandbolchi o`ta yuqori yuklamadagi ishni bajaradi. Bu narsa, o`z navbatida, insonning funksional imkoniyatlari darajasini oshiradi ., aqliy irodaviy sifatlarini tarbiyalaydi ( F.A.Abdurahmonov, 2006; SH.K.Pavlov,2008). Gandbol matchi ko`p martalab hujum\dan himoyaga, himoyadan hujumga o`tishdan iborat bo`lgani uchun ham, tabiiyki har qaysi komandani hujumva himoya harakatlari uyushgan bo`lishi kerak.

Qayd etilgan holatlar yuqori malakali sportchilarni tayyorlashda o`quv-trenirovka jarayonida gandbolchilarni psixologik jihatdan tayyorlash muammosini vujudga keltiradi va alohida ahamiyat kasb etadi.

XX – XI sporthilarni psixologik tayyorlashning muhim qismi bo`lib irodaviy tayyorlash hisoblanadi. Chunki hozirgi vaqtda musobaqada ishtirok etadigan yuqori malakali sportchilarda jismoniy texnik-taktik tayyorgarliklar deyarli har xil darajada bo`ladi. Lekin psixologik nuqtai nazardan yutuqlar irodasi kuchli sportchiniki deb tan olingan. Shuning uchun sportchilarni irodaviy jihatdan tayyorlash g`alaba uchun kurashlarida katta ahamiyatga ega bo`lib qolmoqda.

Iroda odamning ongli ravishda muayyan maqsadlarga qaratilgan harakat va intilishlarida anglab olingan maqsadlar, motivlar, ahloqiy prinsiplar va ishonch e`tiqodlar asosida amalga oshiriladigan holatlarni tartibga solish bilan belgilanadi.

Iroda odam hayotining ijtimoiy- tarixiy sharoitlari bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar o`zgarishi bilan odamning intilayotgan maqsadlari ham o`zgaradi, odamni faoliyatga undaydigan motivlari(sabablari) ham o`zgaradi. Demak uning irodaviy faoliyati harakteri ham o`zgaradi.

Odamning irodasi muayyan maqsadga intilishda, mustaqillik, qat`iyatlik, matonatlilik, sabotlilik, mardlik-dadlilik,o`zini tuta bilish, intizomlilikda namoyon bo`ladi.

Sporytchilarni o`z-o`zini boshqarishga o`rgatish – irodaviy tayyorlashning asosiy vazifalaridan biri bo`lib hisoblanadi. Sportchilarni irodaviy sifatlarini rivojlantirish, psixologik tayyorlashning samaradorligi eng muhim omillardan biridir. Bu omil muvofaqiyatsizlikdan g`alabaga erishish yoki aksincha, g`alaba qozonib turib muvoffaqiyatsizlikka erishish da muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqori malakali sportchilarni tarbiyalashda o`quv-mashg`ulot jarayonini to`g`ri uyushtirish, sportchi shaxsi sifatlarini tarbiyalash muhimdir. Musobaqalar aynan ular o`tkaziladigan kunda yutilmaydi. G`alabalar ko`p soatli, kuchli, shuddatli mehnat natijasida tayyorlanadi.

Shularni hisobga olgan holda tadqiqotimiz maqsadi musobaqa davri oldidan gandbolchilarni psixologik tayyorgarlik va irodaviy sifatlarini takomillashtirishning psixologik omillarini aniqlash.

Tadqiqot jarayonida quyidagi asosiy vazifalar hal etildi:

1. Murabiylarning faoliyati uchun zarur ruhiy omillarni aniqlash.
2. Murabiylarning ruhiy holatini rivojlantirish.

Qo`yilgan vazifalarni hal etish uchun quyidagi uslubiyatlar qo`llanildi:

- Ilmiy-uslubiy va psixologik adabiyotlar o`rganish va tahlil qilish.
- Anketalash.
- Pedagogik kuzatuvlar.
- Tajriba tadqiqotlari.
- Matematik statistika uslubi.

## 2.1 Tadqiqotni tashkil qilinishi.

Tadqiqotimizda 6 nafar murabiylar qatnashadilar bular Abdalimov Alisher, Isroilov Rustam “SKIF” terma jamoa murabiylari, Abdullayev Olimjon, Abdukarimov Azizjon “5-sonli bolalar, o’spirinlar sport maktabi” murabiylari, Azimov Zafarbek, Tursunov Otabek “Andijon” terma jamoa murabiylari qatnashadilar.

Gandbol bo‘yicha murabiylarning faoliyatining psixologik hususiyatlarini o‘rganish maqsadida test savollari ishlab chiqildi. Tadqiqotimizda murabiylar ikki guruxga bo‘lingan xolda tadqiqotda qatnashadilar. Bu guruxlar tadqiqot va nazorat guruxlari. “SKIF” terma jamoa murabiylari tadqiqot guruxi sifatida qatnashadilar. “Andijon” va “5-sonli bolalar, o’spirinlar sport maktabi” murabiylari esa nazorat guruxlari sifatida tadqiqotda qatnashadilar.

Tadqiqotimiz ikki davrga bo‘lingan xolda olib boriladi. Birinchi davrda murabiylerden ishlab chiqilgan test savolariga javob berishadi. Birinchi davrdan keyin tadqiqot guruxiga mashg‘ulotlar davomida murabiylari bilan psixologik hususiyatlarini rivojlantiruvchi treninglar o‘tkaziladi. Nazorat guruxida esa murabiyning rejasi asosida tuzilgan mashg‘ulotlar olib boriladi.

Tadqiqotning ikkinchi davrida ishlab chiqilgan test sinovlari qaytatdan o‘tkaziladi. Bu yo‘l bilan tadqiqot va nazorat guruxlarida psixologik xolatni rivojlangani yoki salbiy oqibatlarga olib kelganini aniqlashimiz mumkun bo‘ladi.

Psixologik omillarini o‘rganish maqsadida iroda kuchi aniqlanadi. Ushbu psixik holatni aniqlash uchun maxsus ishlab chiqilgan testdan foydalaniladi. Tavsiya qilinayotgan fikrlarga shaxs <<ha>> yoki <<yo`q>> javobini berishi kerak.

1. Hayotda muvoffaqiyat tasodiflarga ko`ra oldindan qilingan hisob-kitoblarga ko`proq bog`liq bo`ladi deb o`ylayman.
2. Agar o`zimning sevimli mashg`ulotlarimdan ayrilsam, unda men uchun hayotning mazmuni yo`qoladi.

3. Men uchun har qanday ishning oqibati, natijasidan ko`ra uning bajarilish jarayoni muhim.
4. Men odamlarning o`z yaqinlari bilan munosabatlarining yaxshimasligidan ko`ra ishdagi muvoffaqiyatsizlikdan ko`proq qayg`uradilar deb hisoblayman.
5. Mening fikrimcha, ko`pchilik odamlar yaqin kelajakka mo`ljallangan maqsad bilan yashaydilar.
6. Agar imkoniyat bo`lsada, lekin hech kim sezmasligiga ishonchim komil bo`lsa ham nojo`ya harakat qila olmayman.
7. Mening hayotimda muvoffaqiyatsizlikdan ko`ra muvoffaqiyatli kunlar ko`p bo`lgan.
8. Menga amaliy, ishchan,ishbilarmon odamlardan ko`r axis-tuyg`uli ko`ngilchan inson ko`proq yoqadi.
9. Hatto oddiy ishda ham men uning ba`zi elementlarini takomillashtirishga harakat qilaman.
10. Muvoffaqiyatga erishish haqidagi fikrlarga berilib ketgan vaqtlarimda ehtiyotkorlik choralarini unutib qo`yishim mumkin.
11. Yoshligimda ota-onam meni dangasa deb hisoblar edi.
12. Men o`zimning muvoffaqiyatsizliklarimga sharoit emas, balki ko`proq o`zimni aybdor deb hisoblayman.
13. Ota-onam meni qattiq nazorat qilishgan.
14. Menda qobiliyatga nisbatan sabr-toqat kuchli.
15. O`z maqsadlarimga qaytishga muvoffaqiyatga erisha olmasligim haqidagi fikr emas, balki dangasalik sabab bo`ladi.
16. Men o`zimni o`zimga ishonaman deb hisoblayman.
17. Muvofaqiyatga erishish uchun garchi imkoniyatlar mening foydamga bo`lmasa ham tavnakkal qilishim mumkin.
18. Men tirishqoq odam emasman.
19. Hamma ishlar tekis ketayotgan bo`lsa, unda mening g`ayratim yanada oshadi.



20. Agar men gazetada ishlaganimda edi, unda turli voqealar haqida yozishdan ko`ra, ko`proq odamlar yaratgan yangiliklarni yozgan bo`lar edim.

21. Mening yaqinlarim odatda shaxsiy rejalarim bilan hamfikir bo`lmaydi;lar.

22. Mendagi hayotga nisbatan bo`lgan talablarimning darajasi o`rtoqlarimning shunday talablaridan pastroq.

23. Men o`z maqsadlarimga erishish yo`lida qat`iyman.

Test kaliti.

<<ha>> - 1,2,6,7,8,9,15,17,19,20,22,23

<<yo`q>> - 3,4,5,10,11,12,13,14,16,18,21

Natijalarning miqdoriy tahlili:

Kalitga mos kelgan har bir javob bir balldan baxolanadi.

Ballar yig`indisi 0-9gacha bo`lsa – iroda kuchi past, sizning faoliyatingizda muvoffaqiyatga ehtiyoj yaqqol ko`rinmaydi.

10-13 ballgacha – iroda kuchi o`rtacha, sizda muvoffaqiyatga intilish bor, lekin hayotda faoliyatingizni tashkil qilishda har doim ham muvoffaqiyatga erisha olmaysiz.

14-23 ballgacha iroda kuchi yuqori, sizning faoliyatingizda muvoffaqiyatga ehtiyoj juda yuqori, har doim muvoffaqiyat bo`lishiga ishonasiz, qat`iysiz u yoki bu darajadagi murakkab, lekin bajarilishi mumkin bo`lgan ishlarni yoqtirasiz.

Olingan ilmiy-tekshirish natijalarni ishlash va tahlil qilish uchun matematik, satatistik usullar ishlatiladi. Har bir tekshirilgan guruxlarda olingan natijalarni o`rta arifmetik qiymati, ko`rsatgichlari o`rtasidagi o`zaro bog`lanishlar aniqlanadi.

### **2.3 “O‘qituvchi shaxsida kasbiy sifatlarni rivojlantirish bo‘yicha amaliy psixologik mashg‘ulotlar dasturi”.**

Mazkur dasturda pedagog shaxsida kasbiy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan amaliy psixologik ishning tashkiliy hamda uslubiy asoslari bayon etiladi. Dasturning asosiy mazmunini tashkil etuvchi mashq va mashg‘ulotlar pedagoglarni kasb professiogrammasi bilan tanishtirish hamda kasbiy muhim psixologik xislatlar va jarayonlarni rivojlantirishga mo‘ljallangan.

Dastur pedagoglar bilan 2 oy davomida haftasiga 1 martadan 1 soatdan mashg‘ulot o‘tkazishga mo‘ljallangan hamda yaxlit tizimlashtirilgan tuzilishga ega. Har bir mashg‘ulot 3 tadan mashqni o‘z ichiga olgan bo‘lib ularning birinchisida pedagog kasblarining professiogrammasi bilan tanishtirish, keyingi ikkitasida kasbiy muhim psixologik xislatlar va jarayonlarni rivojlantirish ishlarini amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Mashg‘ulotlar kichik 12-15 kishilik guruhlarda o‘tkazilishi tavsiya qilinadi.

1-mashg‘ulot:

Pedagog kasbi.

Maqsadi: pedagoglarda o‘z kasbi haqida, ularning faoliyatiga qo‘yiladigan talablar haqida tushunchalar hosil qilish, bilimlarni mustahkamlash, ixtiyoriy diqqat va xotirani rivojlantirish.

1-mashq. Pedagogning asosiy faoliyat turlari.

Mashq mazmuni: Murabbiy oldindan tayyorlangan vatmanga yozilgan quyidagi so‘zlarning o‘ng tomonini qog‘oz bilan berkitib qo‘yadi, talabalardan chap tomonda berilgan savollarga javob topish so‘raladi. So‘ngra pedagoglar fikrlari haqiqiy mulohazalar bilan taqqoslanib, to‘g‘ri javobni o‘rganadilar.

Guruh trener pedagoglarga quyidagi qo‘llanma bilan murojaat qiladi. Qo‘llanma: «Pedagogning qanday faoliyat turlarini bilasiz?». Talabalar doskaga navbat bilan pedagogning asosiy faoliyat turlarini yozadilar. Ularning javoblari oldindan tayyorlangan javoblarga qanchalik mosligi hamda pedagoglarning o‘z kasbining asosiy faoliyat turlari bilan qanchalik tanishganliklari tekshiriladi. SHu bilan birga pedagoglar oldindan tayyorlangan javoblar bilan tanishish jarayonida

pedagogning asosiy faoliyat turlari bilan tanishib kasb haqida tasavvurlari hamda kasbiy yo‘nalganligi ortadi.

Asosiy faoliyat turlari

-ta’limiy-tarbiyaviy ishlarning alohida bosqichlarini o‘tkazish dasturi va ishchi rejalarni ishlab chiqish;

-aniq mavzu bo‘yicha ma’lumotlarni tahlil qilish, tizimlashtirish, to‘plash, qayta ishlash;

-tajribalarni o‘tkazish, natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish;

-olingan ma’lumotlar bo‘yicha hisoblar tuzish;

-ishlab chiqilgan loyihalarni amalga tatbiq etishda ishtirok etish;

-tugallangan ilmiy tadqiqotlar va loyihalarga hisobotlar tayyorlash.

2-mashq. “Diqqatlilik”.

Mashq maqsadi: pedagoglarda kasbiy muhim bilish jarayonlaridan ixtiyoriy diqqat va ixtiyoriy esda olib qolishni rivojlantirish.

Mashq mazmuni: Mashqda bir pedagog tanlanadi. Unga galma-galdan sonlar aytiladi. U bu sonlarni qaytarishi kerak. Hammasini qaytarib bo‘lgach, gal boshqa ishtirokchiga o‘tadi. SHu tarzda pedagoglarda ixtiyoriy diqqat va ixtiyoriy esda olib qolish rivojlantiriladi.

II-mashg‘ulot.

Pedagog faoliyatini muvaffaqiyatli bajarishni ta’minlaydigan xislatlar.

Maqsadi: pedagog kasbi uchun zarur bo‘ladigan xislatlar bilan tanishtirish, ularning bu boradagi bilim va tasavvurlarini kengaytirish, ijodiy xayol va tasavvurni rivojlantirish

1-mashq. Zamonaviy pedagogning shaxs xislatlari.

Maqsadi: pedagog uchun zarur kasbiy muhim xislatlar bilan tanishish.

Mashq mazmuni:

Murabbiy: Bugungi mashg‘ulotda biz sizlar bilan “Aqliy hujum” o‘tkazamiz. Buning uchun pedagog faoliyatini muvaffaqiyatli bajarishni ta’minlaydigan xislatlarni aytamiz. Qani marhamat boshladik!”

Pedagoglar aytgan fikrlar yozib boriladi. Mashq oxirida aytilgan fikrlarning, pedagoglarning o'z kasblari uchun zarur bo'ladigan psixologik xislatlardan qanchalik xabardorligi tekshiriladi. Buning uchun ularga quyidagi xislatlar ko'rsatiladi.

Pedagoglar o'zlari bilgan kasbiy muhim xislatlar bilan birga yangi xislatlar haqida ham tasavvurga ega bo'lib, kasb haqida tasavurlari, kasbiy yo'nalganligi ortadi.

2- mashq. Antonimini top.

Maqsad: kuzatuvchanlik, idrok va tafakkurni rivojlantirish.

Mashq mazmuni: ishtirokchilarga turli sifat va xususiyatlarni anglatuvchi so'zlar qatori yozilgan varoq beriladi. Masalan, quyidagilar bo'lishi mumkin:

- 1) issiq-.....
- 2) qattiq- .....
- 3) katta- .....
- 4) baland-.....
- 5) shirin-.....
- 6) ko'p - ..... va h

So'ngra shu sifatlar ishtirokida gap tuzish toshirig'i beriladi. Eng ko'p gap tuzgan va topshiriqni to'g'ri bajargan talaba g'olib bo'ladi.

3-mashq. "SHunaqa bo'lganda, nima bo'lardi?"

Maqsadi: ijodiy xayolni rivojlantirish.

Mashq mazmuni pedagoglardan kimdir eng fantastik hodisani gapirib beradi, boshqalar esa undan ham o'tadigan vaziyatni o'ylab topishi kerak:

Masalan:

1. "Agar har bir odam tug'ilishi bilan boshqa odamning xayollarini o'qish xususiyatiga ega bo'lsa, erdagi hayot qanaqa o'zgaradi".
2. "Agarda butun dunyoda tortishish kuchi yo'qolib, odamlar va narsalar o'z hajmini yo'qotsa, bunda nima bo'lardi?".
3. "Agarda hamma odamlar gapirish xususiyatini yo'qotsalar, bunda nima bo'lardi?".

4. “Agar kuchuklar gapirishni o‘rganib olsalar nima bo‘lardi?”....

III-mashg‘ulot.

Pedagogning shaxs xislatlari.

Maqsadi: pedagog shaxsining xislatlari, pedagogning kasbiy faoliyatiga to‘sqinlik qiluvchi xislatlar, kasb tarixi bilan o‘qituvchilarni tanishtirish hamda ularda tasavvur va xayolni rivojlantirish.

“Hohlayman, qila olaman” o‘yini.

Mashq maqsadi: o‘qituvchida o‘ziga nisbatan ishonch va faollikning hohish va majburiylikni individual holatlarining o‘ssishi, o‘zini anglash va pedagogik faoliyatda o‘ziga xos xislatlarni shakllantirishdir. O‘qituvchilar guruhiga yarim aylana tarzida o‘tirish aytiladi. Ikki stul bo‘sh qoladi. Hoxishga ko‘ra istagan ikki o‘qituvchi markazga o‘rtaga chiqishadi va guruhga qarab o‘tiradi. Bir o‘qituvchi tinglovchi boshqasi boshlovchi bo‘ladi. Oxirgisi 3 ta gap aytadi, 1 chi bo‘limi bir xil, ikkinchisi har xil bo‘ladi. Masalan: u aytadi, «Men o‘zimga ishonishim kerak, men o‘ziga ishona olaman, men o‘zimga ishonishni hohlayman».

Kishilar nima o‘ylasalar o‘shani aytadilar, ya’ni xayolga kelgan birinchi fikrni aytishlari mumkin. Aytilgan uchinchi gapdan birinchisi kimning gapi ta’sirchan chiqqanligi muhokama qilinadi. Birinchi bu savollar ikkinchi ishtirokchiga beriladi. Tinglovchi tomonidan so‘ng barcha guruhga murojaat qilinadi. Gapiruvchining intonatsiyasi yuzidagi o‘zgarishlari va hokozolar hisobga olinadi. Qonunga ko‘ra, ayollar auditoriyasida «Men majburman, men qilishmi kerak tamoyilida yashaydi». «Men hohlayman» shaxsiy istagiga na vaqt na kuch topiladi.

Psixolog har qanday inson qaysidir vaqtda «O‘zing uchun yasha, hayot sen uchun» ligini uqtirishga harakat qilishi optimizmni saqlash va ruhan sog‘lomligini guruhga ko‘rsatishga harakat qilishi kerak. Psixolog o‘qituvchining maktabdagi xulq uning boshqa o‘qituvchilar bilan munosabatiga pedagogik faoliyati asosi emas, uning individual xususiyatlari ham muhimligini ko‘rsatishi kerak.

Bir o‘qituvchi talabchan hissiyotga beriluvchan va muomilada qo‘pol boshqasi muloqotga kirishuvchan bo‘ladi. Muhimi o‘zingizni inkor qilmang.

**III-BOB. GANDBOLCHILARDA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIK VA  
IRODAVIY SIFATLARNING HARAKTERLI HUSUSIYATLARINI  
O`RGANISH.**

**3.1 Tadqiqot natijalari.**

Tadqiqot guruhining natijalari.

1-jadval

Abdalimov Alisher					Isroilov Rustam				
1 - Tadqiqot			2 - Tadqiqot		1 - Tadqiqot			2 - Tadqiqot	
№	Javoblar	Ball	Javoblar	Ball	№	Javoblar	Ball	Javoblar	Ball
1	ha	1	ha	1	1	yo`q	0	ha	1
2	yo`q	0	ha	1	2	ha	1	yo`q	0
3	yo`q	1	yo`q	1	3	yo`q	1	yo`q	1
4	ha	0	yo`q	1	4	ha	0	yo`q	1
5	ha	0	yo`q	1	5	ha	0	yo`q	1
6	ha	1	yo`q	0	6	ha	1	yo`q	0
7	yo`q	0	ha	1	7	ha	1	ha	1
8	yo`q	0	ha	1	8	ha	1	ha	1
9	ha	1	ha	1	9	yo`q	0	ha	1
10	yo`q	1	yo`q	1	10	yo`q	1	yo`q	1
11	ha	0	yo`q	1	11	ha	0	yo`q	1
12	yo`q	1	ha	0	12	yo`q	1	yo`q	1
13	ha	0	yo`q	1	13	yo`q	1	yo`q	1
14	ha	0	yo`q	1	14	ha	0	yo`q	1
15	ha	1	ha	1	15	yo`q	0	ha	1
16	yo`q	1	yo`q	1	16	yo`q	1	yo`q	1
17	ha	1	ha	1	17	yo`q	0	yo`q	0
18	yo`q	1	yo`q	1	18	ha	0	yo`q	1
19	yo`q	0	ha	1	19	ha	1	ha	1
20	ha	1	ha	1	20	yo`q	0	ha	1
21	yo`q	1	yo`q	1	21	yo`q	1	yo`q	1
22	yo`q	0	ha	1	22	yo`q	0	ha	1
23	ha	1	ha	1	23	ha	1	ha	1
Jami : 13			Jami : 21		Jami : 12			Jami : 20	

1-Jadvalda Abdalimov Alisher va Isroilov Rustamlarning tadqiqotning 1-2 davrlaridagi psixologik test savolariga javoblari hamda javoblarga berilgan ballar aks etgan.

Nazorat guruhining natijalari.

2-jadval

Abdullayev Olimjon					Abdukarimov Azizjon				
1 - Tadqiqot			2 - Tadqiqot		1 - Tadqiqot			2 - Tadqiqot	
№	Javoblar	Ball	Javoblar	Ball	№	Javoblar	Ball	Javoblar	Ball
1	ha	1	ha	1	1	ha	1	ha	1
2	yo`q	0	ha	1	2	ha	1	ha	1
3	ha	0	yo`q	1	3	yo`q	1	ha	0
4	ha	0	ha	0	4	ha	0	yo`q	1
5	ha	0	yo`q	1	5	ha	0	ha	0
6	ha	1	ha	1	6	ha	1	ha	1
7	yo`q	0	ha	1	7	yo`q	0	yo`q	0
8	yo`q	0	yo`q	0	8	ha	1	ha	1
9	ha	1	ha	1	9	yo`q	0	ha	1
10	yo`q	1	ha	0	10	ha	0	yo`q	1
11	ha	0	yo`q	1	11	ha	0	yo`q	1
12	ha	0	ha	0	12	yo`q	1	yo`q	1
13	ha	0	yo`q	1	13	yo`q	1	yo`q	1
14	ha	0	ha	0	14	ha	0	ha	0
15	ha	1	ha	1	15	yo`q	0	yo`q	0
16	yo`q	1	ha	0	16	ha	0	yo`q	1
17	ha	1	yo`q	0	17	yo`q	0	yo`q	0
18	ha	0	ha	0	18	ha	0	ha	0
19	yo`q	0	yo`q	0	19	ha	1	ha	1
20	ha	1	ha	1	20	yo`q	0	yo`q	0
21	yo`q	1	ha	0	21	ha	0	yo`q	1
22	yo`q	0	ha	1	22	yo`q	0	yo`q	0
23	ha	1	ha	1	23	ha	1	ha	1
Jami : 10			Jami : 13		Jami : 9			Jami : 14	

2-Jadvalda Abdullayev Olimjon va Abdukarimov Azizjon tadqiqotning 1-2 davrlaridagi psixologik test savolariga bergan javoblari hamda javoblarga berilgan ballar aks etgan.

Nazorat guruhining natijalari.

3-Jadval

Azimov Zafarбек					Tursunov Otabek				
1 - Tadqiqot			2 - Tadqiqot		1 - Tadqiqot			2 - Tadqiqot	
№	Javoblar	Ball	Javoblar	Ball	№	Javoblar	Ball	Javoblar	Ball
1	ha	1	ha	1	1	yo`q	0	yo`q	0
2	yo`q	0	yo`q	0	2	ha	1	ha	1
3	yo`q	1	yo`q	1	3	yo`q	1	yo`q	1
4	yo`q	1	yo`q	1	4	ha	0	ha	0
5	ha	0	ha	0	5	yo`q	1	yo`q	1
6	ha	1	ha	1	6	yo`q	0	yo`q	0
7	yo`q	0	yo`q	0	7	yo`q	0	yo`q	0
8	yo`q	0	yo`q	0	8	ha	1	yo`q	0
9	ha	1	ha	1	9	yo`q	0	yo`q	0
10	yo`q	1	ha	0	10	yo`q	1	yo`q	1
11	ha	0	yo`q	1	11	ha	0	yo`q	0
12	ha	0	yo`q	1	12	yo`q	1	yo`q	1
13	yo`q	1	ha	0	13	yo`q	1	yo`q	1
14	ha	0	yo`q	1	14	ha	0	yo`q	1
15	ha	1	ha	1	15	yo`q	0	ha	1
16	yo`q	1	ha	0	16	yo`q	1	yo`q	1
17	ha	1	ha	1	17	yo`q	0	yo`q	0
18	yo`q	1	ha	0	18	yo`q	1	yo`q	1
19	yo`q	0	ha	1	19	yo`q	0	yo`q	0
20	yo`q	0	ha	1	20	yo`q	0	yo`q	0
21	yo`q	1	yo`q	1	21	ha	0	ha	0
22	yo`q	0	ha	1	22	yo`q	0	ha	1
23	ha	1	ha	1	23	ha	1	ha	1
Jami : 13			Jami : 15		Jami : 10			Jami : 12	

3-Jadvalda Azimov Zafarбек va Tursunov Otabeklarning tadqiqotning 1-2 davrlaridagi psixologik test savolariga bergan javoblari hamda javoblarga berilgan ballar aks etgan.



### 3.2 Tadqiqot natijalarini taqoslash.

Tadqiqotning 1- 2 davrlarini taqoslash.

4 - Jadval

Guruxlar		I Tadqiqot	To'g'ri javob % da	II Tadqiqot	To'g'ri javob % da	Rivojlanganligi % da	Umumiy rivojlanish
Tadqiqot guruhi	Adalimov Alisher	13	56,5	21	91.3	34.8	34.75%
	Isroilov Rustam	12	52.2	20	86.9	34.7	
Nazorat guruhi	Abdullayev Olimjon	10	43.4	13	56.5	13.1	13.05%
	Abdukarimov Azizjon	9	39.1	14	60.8	21.7	
	Azimov Zafarbek	13	56.5	15	65.2	8.7	
	Tursunov Otabek	10	43.4	12	52.1	8.7	

4-Jadvalda Tadqiqot va Nazorat guruhlarini 1-2 davrlaridagi psixologik test savolariga bergan javoblari hamda javoblarga berilgan ballarni bir-biriga solishtilgan.

## **Xulosa.**

O'tkazilgan tadqiqotga ko'ra shu malum bo'ldi:

1 – Tadqiqot guruhining natijalari yuqori darajada rivojlangani aniqlandi. Tadqiqotning birinchi davrida olingan natijalarga tayangan xolda shuni aytish mumkinki biz ishlab chiqan psixologik treyning o'zining ijobiy tarafini ko'rsatib murabiylarda psixologik xolatni rivojlanishiga turtki bo'ldi deb bemalol ayta olamiz.

2 – tadqiqotning natijalariga tayangan xolda aytish mumkinki nazorat guruxining psixologik testlardagi natjalari tadqiqot gurixiga qaraganda biroz pastligi aniqlandi. Bunga sabab murabiylarning o'z ustida ishlamasliklari va mashg'ulotlarga oldindan psixologik tayorgarchilik ko'rmasliklari ntadqiqot natijalarini bunday o'zgarishiga sabab bo'ladi deb ayta olamiz.

Xuslosa qilib aytadigan bo'lsak murabiylarda psixolgik xolatni rivojlantirish orqali shug'ulanuvchilarning gandbol sport turiga bo'lgan qiziqishini va sport turiga bo'lgan muxabatini oshirishga mufaqt bo'lamiz. Aks xolda murabiylarning psixologik xolatiga befarqlicha qarajak shug'ulanuvchilarning sport turiga bo'lgan qiziqishini va gandbolga sport turiga bo'lgan muxabatini keskin ravishda so'ndirib qo'yamiz deya olamiz.

Xulosammiz so'ngida shuni aytish keraki biz ishlab chiqan psixologik testlarni nafaqat murabiylar bilan balki shug'ulanuvchi gandbolistlardan xam bunday testlarni o'tkazish kerak chunki ularning murabiyga bo'lgan fikrini, gandbol sport turiga bo'lgan fikrini aniqlashimiz mumkin bo'ladi. O'tkazilgan tadqiqotga ko'ra gandbolda murabiy va shug'ulanuvchi bilan muloqada yuzaga keladiga muamolarga biz o'tkazgan tadqiqotimiz va biz ishlab chiqan psixologik mashqlarimi javob bo'ladi deb o'ylaymiz.

## **Foydalanilgan asosiy adabiyotlar ro'yxati.**

1. Ўзбекистон Республикаси “Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида” ги қонун (14 Январь 1992й)
2. Каримов И. А. “Ўзбекистон ХХИ аср бўсағасида “ хавсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т. 1997й ИИ боб.
3. Каримов И. А. «Соғлом авлод бизнинг келажагимиз» Соғлом авлод дастурини тасдиқлашга бағишланган мажлисда сўзлаган нутқи. Т. 2000
4. Павлов Ш.К, Азизова Р.И. Гандбол- БО`СМлар учун дастур.2009 йил.
5. Павлов Ш.К, Абдурахмонов Ф.А, Рахмонова М.М>”Гандбол”- о`қув қо`лланма, 2010йил.32-45б.
6. Павлов Ш.К. Абдурахмонов Ф.А, подготовка гандболистов- О`ЗГИФКТ.:2006йил 299б.
7. Павлов Ш.К, Абдурахмонов Ф.А, Акромов Ж.А, Гандбол :ЖТИ учун дарслик,2005й,80-91б.
8. Захарова Анна Павловна Психолого - педагогические основы применения педагогических технологий в процессе преподавания физической культуры. 2012 г
9. Спортивные игры. Техника, тактика обучения: учеб. Для студентов пед. Вузов по спет.033100-физ. Культура/ ред Железняк Й.Д., Портнов Й.М.-М.:академия,2001-518с.
10. Сейтхалилов э.а., ривкин А.А. Гандбалист в игре И тренировке.- ташкент:медитсина,
11. Абдурахмонов Ф.А, Лемешков В.А, Ливитский А.Н, Павлов Ш.К, Яротский Й.Л, “Подгатовка гандболистов” Тошкент-1992.из. Отд.УзГИФК.
12. Айрапетянс Л.Р., Годик М.А. “Спортивные игры”-ташкент изд-во им. Ибн-сини.

13. Акрамов Р.А. футбол. О`зДЖТИ нашриёти-матбаа бо`лими, 2006-4066.
14. Павлов Ш.К., Абдурахмонов Ф.А., Подготовка гандболистов:-Т УзГосИФК.2006.
15. Акрамов Ж.А, Гандбол:ЖТИ учун дарслик,
16. Азимов И., Собитов Ш. Спорт физиологияси.
17. Азимов И.,Собитов Ш. Физиология. //О`қув қо`лланма.
18. Брилл М.С., Филин В.П. Перспективи совершенствования системы отбора юнних спортсменов Теор. И практ. Физической культуры. Но
19. Волков В.М.,Филин В.П. <<Спортивный отбор>>
20. Губа В.П. <<актуальный проблем современной теории И методики определения раннего спортивного таланта>> теор. И пр. Физ култ.- Но9,2000.С.28-31.
21. Затсиорский В.М., Булгакова Н.Ж., Рагимов Р.М Сергеенко Л.П. <<проблема спортивной одаренности И отбор в спорте>> Теория И практика физической культуры.
22. Игнатева В.Й. Гандбол: Учебник для ИФК,М.
23. Игнатева В.Й.,Портнов Й.М. Гандбол учебник для физкультурных вузов,
24. Игнатев В.Й Гандбол: Техника тактика обучения методика; учебное пособие для студентов педфака
25. Игнатева В.Й., Портнов Й.М. Гандбол. Учебник для физкультурных вузов,.

### **Foydalanilgan yordamchi adabiyotlar.**

1. Портних Ю. Спортивные игры. М:Фис 1975.

2. Преображенский И.Н Хоразянз А.А баскетбол в школе М:Фис
3. Программа для гандболу ДЙСШ составотели: В.Й Игнатева. И др. фискултура И спорт.
4. Ривкин А. Сейтхашлов э, Изаак В, эвтушенко А, Абдурахмонов Ф.А Подготовка гондболистов. Т: Медитсина,
5. Ребинд Д.В. методика отбора в ранней оптимизатсийи юнних гандбалистов. Учетали их ииндивидуалних особеннистей. Дисканд Пед наук. всероссийский научно-исследовательский институте физической култури И спорта (ВНИИФК)М,2001 11-23с.
6. Усмонхо`жаев Т.С. алиев М.Б. Сагдиев Х.Х. Турдиева Ф.Қ. болалар ва о`смирлар спорти машг`улотлари назарияси ва услубиётлари. “О`рта махсус касб-хуунар коллежлари учун о`қув ко`лланма, Т-“ЖИМЗЖУО”-2006,63-64б.
7. Азимов И., Собитов Ш. Спорт физиологияси.
8. Азимов И.,Собитов Ш. Физиология. //О`қув ко`лланма.
9. Брилл М.С., Филин В.П. Перспективи совершенствования системы отбора юнних спортсменов Теор. И практ. Физической култури. Но
10. Волков В.М.,Филин В.П. <<Спортивный отбор>>.
11. Губа В.П. <<актуалний проблем современной теории И методики определения раннего спортивного таланта>> теор. И пр. Физ култ.- Но9,2000.С.28-31.
12. Затсиорский В.М., Булгакова Н.Ж., Рагимов Р.М Сергеенко Л.П. <<проблема спортивной одаренности И отбор в спорте>> Теория И практика физической култури.
13. Игнатева В.Й. Гандбол: Учебник для ИФК,М.-ФИС,
14. Игнатева В.Й.,Портнов Й.М. Гандбол учебник для фискултурних вузов,
15. Игнатев В.Й Гандбол: Техника тактика обучения методики; учебное пособие для студентов педфака

16. Игнатева В.И., Портнов И.М. Гандбол. Учебник для физкультурных вузов,.